

O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM

VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODI VA MAMLAKATSHUNOSLIK FAKULTETI

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Globallashuv sharoitida Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining o'ziga
xos jihatlari**

Bajardi: Mintaqashunoslik" ta'lim

yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi

Valieva Aziza Nusratxanovna

Ilmiy rahbar: "Uzoq Sharq va

Janubiy Osiyo mintaqasi

iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi"

kafedrasi o'qituvchisi Zufarova Feruza

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va
mamlakatshunoslik” fakultet dekani

i.f.n.,dots.Haqberdiyev Q.Q.

“ ____ ” _____ 2012 yil

“Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo mintaqasi
Iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” kafedrası

i.f.n.,dots.Sadibekova B.D.

“ ____ ” _____ 2012 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3-7
I Bob: Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari.....	8-25
1.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning shakllari va yo'nalishlari.....	8-15
1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	15-25
II Bob: Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishining asosiy xususiyatlari.....	26-48
2.1. Yaponiya tashqi savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanishining bosqichlari.....	26-36
2.2. Yaponiya tashqi savdo aylanmasi o'zgarishi tahlili.....	36-48
III Bob: Globallashuv sharoitida Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo'nalishlari.....	49-68
3.1. Yaponiyaning xalqaro bozoridagi mavqeini mustaxkamlash muammolari.....	49-58
3.2. O'zbekiston - Yaponiya tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlari.....	58-67
XULOSA.....	67-69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70-74

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Davlat rivojlanishinig barcha tarixiy bosqichlarida tashqi iqtisodiy faoliyat har xil darajalarda umuman xalq xo'jaligida, alohida regionlarda, muassasa va tashkilotlarda iqtisodiy masalalarni hal qilishga katta ta'sir ko'rsatgan, va bu soxada iqtisodchilar turli izlanishlar olib borganlar. Xalq xo'jaligi tizimining bir bo'lagi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat ichki xo'jalikning mukammallashishiga, ishlab chiqarish kuchlarining birlashishiga va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi va ko'maklashadi. Hozirgi davrgacha birorta ham davlatga jahon iqtisodiy tizimidan bo'lak ravishda sog'lom iqtisodiyot muhitini yaratish qo'ldan kelmagan.

Hozirgi jahon xo'jaligida iqtisodiyotning integratsiyalashuvi jarayoni yuz berayotgan zamonaviy sharoitda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi alohida rol o'ynaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi butun mamlakat uchun ham alohida olingan tashkilotlar uchun ham birdek muhimdir. "Jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart"¹.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar iqtisodiy hayotning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Davlatlararo iqtisodiy aloqalar ko'p asrlik tarixga ega. Yuz yillar davomida ular ko'proq tashqi savdo ko'rinishida bo'lib u axolini milliy iqtisodiyot butkul ta'minlay olmaydigan yoki umuman ishlab chiqarmaydigan maxsulotlar bilan ta'minlash masalalarini hal qilgan. Evolyutsion jarayon natijasida tashqi iqtisodiy aloqalar tashqi savdoga aylandi, uning natijasida esa mukammal xalqaro iqtisodiy aloqalar yeg'ingisi – jahon xo'jaligiga aylandi. Unda ro'y berayotgan jarayonlar dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatlariga ta'luqlidir. Tabiiyki, barcha mamlakatlar birinchi navbatda o'z manfaatlarini ko'zlab, o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishi zarur.

¹ I.A.Karimov Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston 2010

Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, hatto sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarilib turilishi kerakligining ob'ektiv zaruriyati mavjud. Davlatning vazifasi avvalambor, milliy ishlab chiqaruvchilarini manfaatlarini himoya qilish, eksport hajmini ko'paytirish uchun chora-tadbirlar ko'rish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, to'lov balansini muvoznatini saqlash, valyutani boshqarish va eng asosiysi TIF olib borish qoidalarini belgilab beruvchi qonuniy aktlar qabul qilish va ularga bo'ysunilishini nazorat qilishdan iborat.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Yaponiya iqtisodiyotida juda katta ahamiyatga ega va u ko'p yillik tarixga, tajribaga va yuksak natijalarga ega, shuning uchun ham Yaponiyaning tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va unda davlatning faol ishtroki Yaponiyaning o'ziga xos xususiyatidir. Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarini o'ziga qamrab olgan va uni tartibga solib turadi, ichki va tashqi axvolni taxlil qilishdan boshlab, tashqi iqtisodiy startegiyaning ishlab chiqish, geografik va tarkibiy sohalarni muhimligini aniqlab, nazorat qilish va tartibga solishda moliyaviy rag'batlantirish uslublarini qo'llaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganish, uning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari bo'yicha bir qator jahon va mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Yapon iqtisodchi olimlardan Hirofumi Udzava², Masahisa Fudzita³, Mitio Morisima⁴ ular qatorida o'z asarlarida horijiy iqtisodchi-yaponshunos

² Хирофуми Удзава «Рыночный механизм и математическое программирование» (Market Mechanisms and Mathematical Programming, 1960); «Оптимальность, равновесие и экономический рост: избранные работы Хирофуми Удзавы» (Optimality, Equilibrium and Growth: Selected papers of Hirofumi Uzawa, 1988).

³ Масакиса Фудзита «Пространственная экономика: города, регионы и международная торговля» (англ. *The Spatial Economy: Cities, Regions and International Trade*, 1999; в соавторстве с П. Кругманом и Э. Венейблсом)

⁴ Митио Морисима «Равновесие, стабильность и рост: мультисекторный анализ» (Equilibrium, Stability and Growth: A multi-sectoral analysis, 1964); «Теория экономического роста» (Theory of Economic Growth, 1969);

olimlar P.A.Yakov⁵, Qin Julia⁶, Solis Mireya⁷, Kevin Cai⁸ Peng Dajin⁹ va boshqalar atroflicha o'zlarining ilmiy qarashlarini namoyon qilganlar.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish masalalari I.I.Iskandarov, A.M.Alimov, A.A.Isajonov, A.T.Isaxo'jayev, G.K.Karimova, G.G.Nazarova kabilarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Shu bilan birga bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitida erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkil etish muammolarning ko'p qirraliligi chuqur nazariy va amaliy izlanishlarni talab qiladi.

Mavzuning manbalari bo'lib, Yaponiya hukumatining tashqi iqtisodiy faoliyat haqidagi qonunlari, qarorlari, Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari vazirligining statistik ma'lumotlari va doklidlari, Yaponiya tashqi savdo tashkiloti(JETRO)ning yillik statistik to'plamlari, Yaponiya, AQSH, Rossiya va boshqa iqtisodchi olimlarining adabiyotlari va ilmiy maqolalari hamda internet resurslari xizmat qildi.

Ishning maqsad va vazifalari. Hozirgi iqtisodiy bo'hronlar davrida mamlakatning ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatini samarali olib borish hamda uning doimiy sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash har bir davlatning asosiy vazifasi sanaladi. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining o'ziga xos hususiyatlari mavjud bo'lib, uning tajribasidan dunyoning ko'plab mamlakatlari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda samarali foydalanganlar. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining o'ziga xos hususiyatlarini aniqlash va tahlil etish malakaviy bitiruv ishining maqsadi hisoblansa, ushbu maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni bajarish lozimdir. Ular:

- Yaponiya hukumati tomonidan tashqi aloqalarni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohatlar va ularning samaralarini tahlil qilish;
- Yaponiya tashqi iqtisodiy faoliyati tizimida tashqi savdo aloqalarining yetakchilik qilish sabablarini aniqlash;

⁵Певзнер Яков Александрович. Экономика Японии после второй мировой войны (1955). Государство в экономике Японии (1976).

⁶Qin Julia Journal of world trade 2005.

⁷Solis Mireya Japan's competitive FTA strategy. 2008.

⁸Kevin Cai The China-ASEAN Free Trade agreement in Taiwan 2005.

⁹Peng Dajin Invisible Linkages: A Regional Prospective of East Asian Political Economy 2004

- Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari xususan, tashqi savdo aloqalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- Tashqi savdo aloqalarining Yaponiya iqtisodiyotiga ta'sir darajasini aniqlash;
- Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarida qo'llagan strategiyalarni va qo'lga kiritgan yutuqlarini O'zbekiston Respublikasida tadbiq etish imkoniyatlarini aniqlashdir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti. Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining o'ziga xos jihatlari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Globallashuv sharoitida Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarining o'ziga xos jihatlari tahlil etish bo'yicha chora tadbirlar majmui hisoblanadi.

Uslubiy nazariy asosi sifatida Prezident I. A. Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asari xizmat qildi. Bitiruv malakaviy ishida Yaponiya hukumatining tashqi iqtisodiy faoliyat haqidagi qonunlari, qarorlari, Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari vazirligining statistik ma'lumotlari va doklidlari, Yaponiya tashqi savdo tashkiloti(JETRO)ning yillik statistik to'plamlari, Yaponiya, AQSH, Rossiya va boshqa iqtisodchi olimlarining adabiyotlari va ilmiy maqolalari hamda internet resurslari xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining usullari. Bitiruv malakaviy ishini yozish vaqtida statistik va analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Yaponiyaning xalqaro bozoridagi mavqeini mustaxkamlash bo'yicha ba'zi jihatlaridan O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyati ko'rsatilganligi, Yaponiya hukumati tomonidan tashqi aloqalarni rivojlantirish maqsadida amalga oshirilgan islohatlar va ularning samaralarini tahlil etilganligi, Yaponiya tashqi iqtisodiy faoliyati tizimida tashqi savdo aloqalarining yetakchilik qilish sabablarini aniqlanganligi, Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari xususan, tashqi savdo aloqalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritilganligi bilan ifodalanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Yaponiyaning xalqaro bozoridagi mavqeini mustaxkamlash tajribasidan O'zbekiston bo'yicha aniq tavsiyalar berilganligi bilan ifodalanadi. Ushbu natijalardan Yaponiya iqtisodiyoti fanini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida o'rganilayotgan muammo dolzarbligi, uning o'rganilganlik darajasi asoslab berilgan, bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari, predmeti va ob'ekti, uning uslubiy asoslari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi Tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning shakllari va yo'nalishlarining ilmiy-nazariy asoslari, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlari mohiyati va vositalarini nazariy o'rganishga bag'ishlangan.

Ikkinchi bobda Yaponiya tashqi savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanishining bosqichlari xususiyatlari, Yaponiya tashqi savdo aylanmasi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning ba'zi jihatlarini ochib bergan.

Uchinchi bobda globallashuv sharoitida Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo'nalishlari hamda Yaponiyaning xalqaro bozoridagi mavqeini mustaxkamlash muammolari ko'rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida o'rganilayotgan muammo yuzasidan eng muhim nazariy xulosalar va tavsiyalar umumlashtirilgan.

I BOB: Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslar

1.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning shakllari va yo'nalishlari

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi iqtisodiy aloqalarni ro'yobga chiqarish jarayonidir. Tashqi iqtisodiy aloqalar – iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va faoliyatning boshqa sohalarida davlat va uning subyektlari xalqaro hamkorligining xilma-xil shakllari tizimidir.¹⁰ Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va turli milliy davlatlar iqtisodiyotidagi o'zaro bog'liqlik va xo'jalik aloqlarining kengayishi natijasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, soha va yo'nalishlari yanada ortib bordi. Oddiy tovarlar ayirboshlash o'rnini teng huquqli va manfaatli savdo egallay boshladi. Milliy davlatlarning tashqi savdoni tartibga solish dastaklari, usullari murakkablashib bordi. Natijada, faqat tashqi savdo xususida emas, unga bog'liq keng ko'lamdagi aloqalar: davlatlararo savdo-iqtisodiy bitimlar, o'zaro hamkorlik majburiyatlari, banklararo to'lovlar tizimi, transport va sug'urta ta'minoti, tovarlarning sufatlari, standartlashtirish talablari xususidagi masalalar ham katta o'rin egallay boshladi. Shu sababdan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yaxlit bir tizim sifatida tasvvur etgan holda, o'zaro bog'liq masalalarni kompleks hal etish zaruratini anglamoq lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning yo'nalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmi va shakllarini to'liq tasavvur qilish uchun o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini xalqaro miqyosda tartibga solishdagi o'zgarishlarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir :

- xalqaro savdoni tartibga solishda Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh Bitimning qabul qilinishi hamda 1995-yilda Jahon savdo tashkilotining shakllanishi davlatlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar savdosi, investitsiyalar va maxsus xarid xususiyatiga ega tovarlarni tartibga solish qoidalarini belgilab berdi;
- BMTning tarmoq va sohalar bo'yicha ixtisoslashgan bo'limlari (komissiyalar, konferensiyalar, qo'mitalar, dasturlar) doirasida tashqi savdoning tartibga solinishi lozim bo'lgan sohalar bo'yicha Konvensiyalar, shartnomalar qabul

¹⁰ I.A.Hamedov, A.M.Alimov O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari

qilindi. Masalan, xalqaro savdoda yuk tashish qoidalari, intellektual mulk himoyasi, investitsiyalarni sug'urtalashga oid xalqaro konvensiyalar shular jumlasidandir;

– tashqi va xalqaro savdoni amalga oshirishda xalqaro bank-moliya tizimi –Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi kabilar shakllandi hamda o'zaro hisob-kitob, kredit, investitsiyalar va grantlarni o'zlashtirish bo'yicha tegishli tartiblar belgilandi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkiban tashqi savdoga aloqador bo'lgan boshqa sohalar bilan bog'liqligi ortdi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyatning sohaları kengaydi va savdo-sotiq, investitsiyalar, ish kuchi migratsiyasi, texnologiyalarni ko'chirish, axborot almashish, fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash va boshqa ko'plab sohalar bilan o'zaro bog'liqlikda, o'zaro ta'sirda bo'lishini namoyon eta boshladi. Xalqaro iqtisodiy aqalarning mazkur sohaları davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama maxsus bitimlar tuzish hamda kelishuvlarni amalga oshirish zarurligini taqazo eta boshladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- maxsulotlar (tovar va xizmatlar) ayrboshlash, ya'ni xalqaro savdo;
- ilmiy-texnikaviy maxsulotlarni ayrboshlash;
- ishlab chiqarishni joylashtirish;
- investitsiyalar, valyuta va kreditlar borasidagi yo'nalishlar;
- axborot va aloqa sohalaridagi yo'nalishlar;
- mehnat resurslari harakati yo'nalishlari.


Qayd etilgan yo'nalishlar alohida tarzda emas, balki o'zaro bog'langan va bir-birini ta'minlovchi sohalar sifatida ham qaralmog'i lozim. Masalan, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlashda ularning bank tizimlari, balyuta almashinuvi tartibi bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berishda ishtirok etuvchi transport – ekspeditorlik, sug'urta, sifatni tekshirish va nazorat etish kabi sohalariga aloqador masalalarda ham munosabatlar albatta o'rnatilgan bo'lishi shart.

Jahon xo'jalik faoliyati va xususan, tashqi iqtisodiy faoliyatga quyidagi sohalar kiradi¹¹:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish va fan-texnika sohasidagi xalqaro ixtisoslashuv;
- fan-texnika taraqqiyoti natijalarini ayrboshlash;
- mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-moliyaviy hamda kredit aloqalari;
- kapital va ishchi kuchining harakati;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyati, global muammolarni hal etishdagi iqtisodiy hamkorlik.

1.1.1. Rasm.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismlari.¹²



¹¹ Международные экономические отношения В.Е.Рыбалкин

¹² Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Tashqi iqtisodiy faoliyatning turli shakllari mavjud bo'lib, unga quyidagilar kiradi: tashqi savdo (tovar va xizmatlar bo'yicha), qo'shma tadbirkorlik (qo'shma korxonalar, franchayzing, laysenzing, agentlik va h.k.), hamkorlikning boshqa shakllari (biznes alyanslar, konsortsiumlar va h.k.).

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning eng muhim shakllaridan biri – tashqi savdo bo'lib u milliy mehnat natijasida yaratilgan mahsulot va xizmatlar bilan xalqaro almashinuv demakdir. Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, ishlarni (xizmatlarni) eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Uni tog'ri rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va amalga oshirish, aniqligiga erishish uchun tasniflash lozim. Tasniflash deganda xalqaro tijorat kelishuvini oldi-sotti va tovar almashish kelishuvlariga ajratishni tushunish mumkin. Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish harakteri va predmetiga ko'ra u quyidagilarga ajratiladi:

1. Tayyor maxsulotlar savdosi
2. Yeg'ilmagan ko'rinishdagi maxsulotlar savdosi
3. Barter operatsiyalari
4. Eskirgan uskunalar savdosi
5. Xom-ashyo savdosi
6. Litsenziyalar savdosi
7. Injiniring xizmatlarini ko'rsatish va boshqalar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga egadirlar. Shuni takidlash joizki, xalqaro savdo tashqi iqtisodiy faoliyat barcha qolgan shakllari va turlarining boshlang'ich, muvofiqlashtiruvchi va ko'paytiruvchi negizi hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning horijiy sarmoyani jalb etishdek shaklining samaradorligi ham uning darajasiga bog'liqdir. Savdodagi qonun hujjatlari tomonidan belgilangan va boshqa cheklashlar investitsiya jarayonlarida aks etadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tarixiy va iqtisodiy toifa hisoblanadi. Tarixiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar sivilizatsiya maxsuloti hisoblanadi. Ular ular davlatlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keladi va ular bilan birga rivojlanadi. Ushbu aloqalarning rivojlanishiga ayniqsa feodalizmning tanazzuli kuchli turtki berdi. Natural xo'jalikdan tovar-pul munosabatlariga o'tilishi alohida davlatlarning milliy bozorlarini rivojlantirishga va ushbu milliy bozorlarning tovar ayrboshlashida keskin sakrashni tug'dirdi, bu esa davlat munosabatlarining iqtisodiy sohasida baynalmilal aloqalar va xalqaro ayrboshlash kengayishi va chuqurlashishiga olib keldi. Iqtisodiy toifa sifatida tashqi iqtisodiy aloqalar barcha turdagi resurslarning davlatlar va turli davlatlarning iqtisodiy sub'yektlari o'rtasidagi harakati paytida yuzaga keladigan ishlab chiqarish –iqtisodiy munosabatlar tizimini tashkil etadi. ushbu ikki taraflama munosabatlar davlat iqtisodiy hayotining barcha sohalarini, avvalo uning ishlab chiqarish, savdo, investitsiyaga oid vamoliyaviy faoliyatini qamrab oladi.

Hozirgi jahon xo'jaligida tashqi iqtisodiy aloqalar davlat milliy daromadini o'stirish, xalq xo'jaligi harajatlarini tejash va fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillariga aylanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va uni boshqarish mexanizmining samaradorligi ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifi bilan belgilanadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar turi – bitta umumiy belgi, masalan, tovar oqimining yo'nalishi yoki tarkibiy belgi bilan birlashtirilgan aloqalar majmuidir. Tovar oqimining yo'nalishi bilan bog'langan tasnif belgisi tovar (xizmatlar, ishlar)ning

bir mamlakatdan boshqasiga harakatini, ya'ni tovarning mamlakatdan olib chiqilishi yoki tovarning mazkur mamlakatga olib kirilishini belgilaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tasnifining tarkibiy belgisi aloqalarning iqtisodiy manfaatlar sohasi va davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi bilan bog'langan guruhiiy tarkibini belgilaydi. Tarkibiy belgiga ko'ra tashqi iqtisodiy aloqalar tashqi savdo, moliyaviy, ishlab chiqarish, investitsiya aloqalariga bo'linadi.

Tashqi savdo faoliyati tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborot intellectual faoliyat natijalari, shu jumladan ularga doir mutloq huquqlar (intelektual mulk) bilan xalqaro ayrboshlash sohasida tadbirkorlik faoliyatining alohida turidir. Bunda tovar deganda har qanday harakatlanuvchi mol-mulk (shu jumladan energiyaning barcha turlari) va ko'chmas mulkka kiritilgan, tashqi savdo faoliyatining predmeti bo'lgan havo, dengiz kemalari va ichki suzish kemalari hamda fazoviy ob'yektlar tushuniladi. Xalqaro tashishlar to'g'risidagi shartnoma chog'ida foydalaniladigan transport vositalari tovar hisoblanmaydi.

Hozirgi davrda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish o'rinli¹³:

Birinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatning axborot ta'minotiga e'tiborning ortishi, intellektual mulk, patent valitsenziyalar tizimini keng joriy etilishi. Davlatlararo mualliflik xuquqi himoyasining ta'minlanishi, jahon axborot bozorining shakllanishi.

Ikkinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyat hozirgi davrda o'z infratuzilmasiga va unga ta'sir etuvchi xalqaro tashkilotlarga ega. Ushbu infratuzilma sifatida jahon tovarlar va xizmatlar bozorlari (xususan, tovar va xomashyo, valyuta birjalari), xalqaro tashkilotlar hisoblangan JST, XVF, XMK kabi qator mintaqaviy va integratsion tashkilotlar EI, NAFTA(North American Free Trade Agreement) hamda turli ixtisoslashgan tashkilotlarni, ya'ni neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti OPEK, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (IAEA; MAGATE) va hokazolarni keltirish mumkin. Mazkur tashkilotlar davlatlararo savdo,

¹³ Davlatlar va xalqaro tashkilotlar "Akademiya" nashriyoti. Toshkent -2005. 286-287 betlar

investitsiyalar, ishlab chiqarish, fan-texnika sohasidagi hamkorlik masalalarida ko'maklashuvchi, tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritadi.

Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni monopoliyalashtirishga bo'lgan intilishning ortishi. Hozirgi kunda dunyodagi yettita sanoati rivojlangan mamlakat hissasiga jahon ishlab chiqarishining qariyb 80 foizi to'g'ri keladi. Yirik jahon xomashyo, tovar va xizmatlar hamda moliyaviy bozorlarning aksariyati rivojlangan davlatlar hududida mujassamlangan. Bundan tashqari, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositachisi, ishtrokchisi sifatida yirik sanoat-moliya guruxlari, kompaniyalari gavdalanmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish, qayta ishlash va ayrboshlash tizimlarini mujassamlashtiruvchi xususiy transmilliy va ko'p millatli kompaniyalar (TMK, MMK) jahon eksporti va importuning qariyb 60 foizini tashkil etmoqda. Sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarish, ayrboshlash, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohalari faoliyati ham yirik kompaniyalar ta'sirida amalga oshirilmoqda. Shu sababli, ko'plab xalqaro konferensiyalar, muzokaralarda "yangi iqtisodiy tartib"ni joriy etish, rivojlanayotgan davlatlar ishtirokini ko'paytirish takliflari o'rta tashlanmoqda.

To'rtinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatning yangi axborot vositalari, texnologiyalari asosida shakllanishi va rivojlanishi. Internet tizimining vujudga kelishi natijasida elektron tijorat, elektron savdo keng avj olmoqda. Sotuvchi-xaridor, ishlab chiqaruvchi-iste'molchi o'rtasida yangi va tezkor buyurtma-takliflar tizimi shakllanmoqda. Jumladan, B2B, B2C tarzidagi axborot tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning xuquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlarida hamkorlikni yanada rivojlantirish masalasini qo'ymoqda.

Demak, davlatlararo tovar va xizmatlar bozorining shakllanishi, ishlab chiqarish, ayrboshlash jarayonlarining chuqurlashuvi, undagi aloqalar tizimini yanada takomillashtirish, mazkur munosabatlar tizimini yangi bosqichga ko'tarish zaruratini taqazo qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida sub'ektlarning ishtiroki, maqomi vakolatlari masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat hajmi tobora ortib bormoqda. U ayniqsa, davlatlar o'rtasidagi tovar oborotida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Unda ichki bozordagiga nisbatan ko'proq ishtrokchi qatnashmoqda. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va uning mexanizmi bozor munosabatlarining sohasi sifatida quyidagi yangi xususiyatlarga ega bo'lmoqda:

- jahon iqtisodiyoti ko'lamining kengayib borishi, ustiga-ustak sotuvchilar va iste'molchilarning alohida joylashganligi natijasida transport muammosining ortib borishi;
- ba'zi resurslarning (asosan yer, tabiiy-qazilma boyliklarning) kam harakatliligi va manzilga bog'liqligi. Bunga davlatning aralashuvi ham ta'sir etadi (migratsiya qoidalarini joriy etish, chet elliklarga yer sotish, chet el investitsiyalarini va firmalar faoliyatini cheklash, tashqi savdoda proteksionizmga yo'l qo'yish);
- xalqaro ayrboshlashda milliy valyutadan foydalanishning zarurligi va valyuta bozoriga bog'liqlik (ayniqsa, valyuta nazorati va uni tartibga solish masalalarida);
- mahsulotlarni xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirishga e'tiborning ortishi;
- axborot muhiti va uning haqqoniyligiga e'tiborning ortishi. Axborot manbalari, uni to'plash va qiyoslash uslubiyatida muammolarning yuzaga kelishi, milliy va xalqaro statistikaga e'tiborning ortishi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar unifikatsiya qilinishiga bo'lgan intilish.

1.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Iqtisodiy jarayonlarni, mamlakatlarning rivojlanish darajasi va o'zaro murakkab xo'jalik aloqalarini tahlil etishda xalqaro tajribada qabul qilingan milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi. Bu makro darajada iqtisodiyot rivojiga oid bo'lgan va o'zaro bog'langan ko'rsatkichlar tizimidir. Milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat¹⁴:

¹⁴ Основы внешнеэкономических знаний / Под ред. Фаминского И.П. - М.: Международные отношения, 1994.

Yalpi ichki mahsulot(YaIM) – bu ko'rsatkich ma'lum davlat hududida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ma'lum davrda yaratgan pirovard maxsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmini aks ettiradi. Ushbu yakuniy maxsulotni hisoblashda hom ashyo, yarim mahsulotlar, boshqa moddalar, yoqilg'i, elektr quvvati hamda ularni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa hizmat turlari (qayta hisob bo'lmasligini oldini olish uchun) chegirib tashlanadi.

Ayni paytda ba'zi mamlakatlarda yalpi milliy maxsulot (YaMM) ko'rsatkichidan foydalaniladiki, u YaIMdan farqli o'laroq qaysi mamlakatda yaratilganligidan qat'iy nazar shu millat (mamlakat)ning korporatsiyalari, hususiy shaxslari nazoratida bo'lgan ishlab chiqarish hajmini aks ettiradi. YaMMni aniqlash uchun shu mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan chet elliklarning daromadlari (chet el korporatsiyalarining foydalari hamda chet ellik ishchi xizmatchilarining ish haqlari) YaIMdan chegirib tashlanadi, shu mamlakat korporatsiyalari, fuqarolari horijda ishlab topgan daromadlari qo'shiladi. YaIm bilan YaMM ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut odatda miqdor jihatidan unchalik ko'p bo'lmaydi, nari borsa qariyb 1%ni tashkil etadi. shuni e'tiborga olish lozimki, YaIM ko'rsatkichi milliy hisoblar tizimi asosida ishlab chiqiladi. Bu tizim mehnat faoliyatining barcha turlarida mehnat unumli mohiyatga ega, degan qoidaga asoslangan(qiymat yaratilishi nuqtai nazaridan).

Milliy daromad (MD) ko'rsatkichi quyidagicha belgilanadi: YaIM minus amortizatsiya (shunda sof YaIM xosil bo'ladi), minus bilvosita soliqlar va qo'shilgan subsidiyalar. Soliqlar mahsulot va xizmatlarning bozor narxlariga tirqaladi. Subsidiyalar narxlarga teskari ta'sir qiladi –bu narxlar ana shu subsidiyalar miqdorida pasayadi. MD ko'rsatkichi ishlab chiqarilgan milliy mahsulot ko'rsatkichiga deyarli to'g'ri keladi. Milliy mahsulotning o'sish sur'ati uzoq muddat nuqtai nazaridan YaIMga deyarli to'la ravishda muvofiq keladi, shung uchun ham asosan YaIM ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Turli mamlakatlardagi ishlab chiqarish omillari, taraqqiyot darajasining xilma-xilligi iqtisodiy rivojlanish darajasini biron-bir yagona ko'rsatkich orqali

baholashga imkon bermaydi. Buning uchun bir qator asosiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot yoki milliy daromadning axoli jon boshiga hisobi.
2. Milliy iqtisodiyot tarmoqlari tarkibi.
3. Axoli jon boshiga hisoblaganda asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish (ushbu tarmoqlarning rivojlanish darajasi).
4. Aholining turmush darajasi va uning sifati.
5. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Iqtisodiy taraqqiyot darajasini tahlil etishda YaIM, YaMMning axoli jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlari bosh mezon hisoblanadi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda axoli jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM rivojlangan mamlakatlar singari yuqori darajani tashkil etadi, biroq boshqa ko'rsatkichlar (iqtisodning tarmoqlar tuzilmasi, axoli jon boshiga hisoblaganda asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish va hokazolar) yeg'indisiga ko'ra bu mamlakatlarni rivojlangan mamlakatlar toifasiga qo'shib bo'lmaydi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari guruhi iqtisodiy taraqqiyot darajasini juda aniq belgilab beradi, nega deganda u bevosita yoki bilvosita –mamlakatda asosiy va aylanma kapitaldan, mehnat resurslaridan foydalanish sifati, holati, darajasidan dalolat beradi. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- 1) Mehnat unumdorligi (sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish tarmoqlari va turlari bo'yicha);
- 2) YaIM birligiga yoki aniq bir mahsulot turiga qancha capital sarflanishi;
- 3) Asosiy fondlar qaytimi koefitsienti;
- 4) YaIM birligiga yoki aniq bir mahsulot turlariga qancha xomashyo sarflanadi.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tashqi iqtisodiy aloqalari shunchalik faol va xilma-xil bo'ladi. Demak, mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtroki ham qisman uning iqtisodiy taraqqiyoti darajasidan dalolat beradi.

Barcha tashqi iqtisodiy aloqalarning milliy iqtisodiyotga ta'siri ma'lum bir sifat va qiymat ko'rsatkichlari orqali baholanishi va fodalanishi mumkin. Avvalambor mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi qay darajada ekanligini bilish lozim. Bu eksportning yalpi ichki maxsulotdagi ulushi orqali aniqlanadi (YaIM). Bu ko'rsatkich mamlakat eksport kvotasi deb ataladi. Ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, AQSHning eksport kvotasi 10-15% ga teng, Germaniya, Fransiya, Italiya va Angliyaning eksport kvotasi esa 25-30%, Yaponiyada 18% atrofida, Belgiya, Vengriya, Singapur davlatlarida esa 110-113%. Ammo bu ko'rsatkich xalqaro iqtisodiy munosabatlarning sifat tuzulishini, stukturasini harakterlay olmaydi. Shuning uchun uni aks ettirish maqsadida yana bir ko'rsatkichdan foydalaniladi. Bu real eksport kvotasi bo'lib, u mamlakatning sanoat ishlab chiqarilishidagi eksportning ulushi orqali o'lchanadi. Rivojlangan mamlakatlarda u tahminan 40-50 foizga teng. Bu barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yarmi tashqi bozorga olib chiqilishini anglatadi. Mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi shuningdek uning eksportining elastiklik darajasi orqali ham aniqlanadi (YaIM va eksport o'sish sur'atlarining muvozanati). Agar elastiklik birdan oshsa, mamlakat tobora xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi chuqurlashayotganini anglatadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar ta'siri bu sohadagi barcha ishtrokchilar, asosan eksport, import, kredit operatsiyalari faoliyati shuningdek texnik va boshqa xizmatlar ko'rsatish natijalari oqibatida yuzaga keladi. Shu bilan birga avvalo jamiyat, milliy xo'jalik, davlat, manfaatlari ko'zlangan holda samaradorlikni to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.


Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholashda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Eksportning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi
- Importning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi
- Tashqi savdo almashinuvi samaradorligi ko'rsatkichi

- Savdoning narx shartlari, eksport va import narx indeksleri
- To'lov balansi , uning tarkibiy qismlari:
 - Savdo balasi
 - Xizmatlar va nosavdo harajatlar balansi
 - Kapital harakati va kredit balansi
 - Mamlakat oltin-valyuta zaxiralari hisobi

1.2.1.Chizma.

Mamlakat to'lov va savdo balanslarining asosiy mazmuni.¹⁵



Eksportning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi, tashqi bozordagi tovarlar savdosidan tushgan valyutadagi sof daromad va davlatning uni ishlab chiqarishga va transport harajatlariga sarflagan harajatlari nisbatini, shuningdek, agar tovarlar kreditga sotilgan bo'lsa kredit koeffitsienti ta'siri hisobga olingan holda ularning nisbatini ifodalaydi. Odatda maxsulotlar kreditga sotilganda eksport samaradorligi pasayadi, ammo u siz tashqi bozorda tovarlarni realizatsiya qilish, pullash ko'p hollarda ancha mushkul, ba'zi hollarda esa umuman iloji yo'q.

Importning valyuta samaradorligi ko'rsatkichi, olib kirilgan tovarlar narxining ichki ishlab chiqarish sharoitlari va ularni sotib olish va chegaragacha

¹⁵ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

yetkazib berishga sarflangan barcha valyuta harajatlar nisbatidir. Ko'pincha eksportdan ko'rilgan zarar importdan ko'rilgan foyda hisobiga qoplanilishi tufayli yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlarni to'g'riroq qilib aytish uchun uchun quyidagi koeffitsientlar kiritilgan: import uchun eksport samaradorligi ekvivalenti va tegishli ravishda eksport uchun import samaradorligi ekvivalenti.

Tashqi savdo almashinuvi samaradorligi ko'rsatkichi, quyidagi bo'linishdan olingan ko'rsatkichni ifodaloydi, suratda import qilingan tovarlarning qiymat bahosi (ularga ketgan barcha harajatlar) maxrajida esa eksport qilingan tovarlarni ishlab chiqarish va transport harajatlarga ketgan barcha milliy xo'jalik harajatlari¹⁶.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarni bir-biriga bog'lagan holda har tomonlama tahlil qilishga imkon beruvchi, integratsiyalashib kelayotgan ko'rsatkich bu to'lov balansidir. U statistik hisobot bo'lib, ma'lum bir davr mobaynida mamlakat rezidentlari va tashqi dunyo bilan barcha savdo va moliyaviy oqimlarni qamrab oladi. To'lov balansini tashqi iqtisodiy aloqalar jarayoni natijasida mamlakatning haqiqiy to'lovlari va tushumlari qiymatlarining nisbatini ifodalaydi. Shunday ekan, to'lov balansini o'zining tarkibida tashqi iqtisodiy aloqalarning barcha shakllarini aks ettirmog'i lozim. Haqiqatda, mamlakatlarning bir biri bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarining murakkab tuzilishiga muvofiq to'lov balansini o'z ichiga tarkibiy qisimlar sifatida savdo balansini, xizmatlar va notijorat harajatlar balansini, kapital harakati va kredit balansini, oltin-valyuta zaxiralari harakatini qamrab oladi. Ko'pincha savdo balansini va xizmatlar va notijorat harajatlar balansini joriy operatsiyalar balansiga birlashtiriladi.

Mamlakatning savdo balansini tovarlar importi orqali moliyaviy chiqimlarni va tovarlarni chet elga eksport qilish orqali moliyaviy kiritimlarni o'zaro nisbatini ta'riflaydi. To'lov balansining ushbu tarkibiy qismi davlatning tashqi iqtisodiy holatini ta'riflashda ayniqsa muximdir. Agar ma'lum bir davr mobaynida

¹⁶ Международные экономические отношения /Под ред. Хасбулатова Р.И. М.: Новости, 1991.Т.1.

mamlakat eksporti importdan yuqori bo'lsa savdo balansi aktiv (ijobiy savdo saldosiga ega) bo'ladi. Tegishli ravishda, agar import eksportdan yuqori bo'lsa u salbiy (salbiy saldoga ega) bo'ladi.

Xizmatlar va nosavdo operatsiyalar balansi boshqa mamlakatlarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul kirib kelishi va boshqa mamlakatlar xizmatidan foydalanilganlik uchun pulning chiqib ketishi nisbatini ta'riflaydi. Iqtisodchilar xizmatlarni omilli va omilsizga ajratadilar. Omilli xizmatlar milliy investitsiyalardan tadbirkorlik yoki ssuda kapitali shaklidagi tushumni o'z ichiga oladi. Bunga pul tushumlari ya'ni dividendlar shaklida, milliy korxona va firmalar foydasining repatriatsiyasi, horijliklarning milliy patent, litsenziya va menejmentdan foydalanganligi uchun to'lovlar va boshqalar kiradi. Omilsiz xizmatlar oqimiga turizm, yo'lovchi va yuklarni transportda tashish, sug'urta, telekommunikatsiya uchun to'lov va tushumlar kiradi. Savdoga aloqador bo'lmagan, davlatlararo xizmatlar uchun to'lovlar va tushumlar nosavdo oqimlar yoki operatsiyalar deb ataladi. Ular qatoriga pul mablag'larining razmiy o'tkazmalari (masalan, tabiiy ofatlar, urush, epidemiyalarni boshdan kechirayotgan mamlakatlar uchun yordam ko'rsatish), qarindosh va yaqinlar uchun shaxsiy o'tkazmalar va boshqalar.

Kapital harakati va kredit balansi xalqaro kapital va kredit shaklidagi valyuta mablag'larining kirim va chiqimlari nisbatini aks ettiradi. Kapital harakati tadbirkorlik va ssuda investitsiyalari shaklida bo'lishi mumkin va oldi-sotdi jarayonida milliy moliyaviy aktivlar – tashkilot va korxonalarning aksiya va obligatsiyalari, kredit bilan birga boshqa qarz majburiyatlari va horijiy rezident va norezidentlar tomonidan amalga oshiriladi. Kapital harakatining hisobi ko'p hollarda savdo balansi va xizmatlar balanslari zararini qoplovchi rolida ishtrok etadi. Mamlakat ma'lum davr mobaynida tovar va hizmatlarni, ularni ishlab chiqarishga nisbatan ko'proq iste'mol qilsa, davlat va shaxsiy horijiy kredit, qarzlar, va boshqa horijiy kapital oqimlari talabni qoplay olmayotgan joriy ishlab chiqarish, joriy iste'molni moliyalashtirishga yordam beradi, ya'ni bu sof salbiy eksport.

Boshqa bir muhim tarkibiy qism, asosan joriy operatsiyalar balansi, kapital harakati balansi zararlarini qoplash rolini o'ynovchi mamlakat oltin-valyuta zaxiralari hisobidir. Agar to'lov balansining aktiv saldosi joriy operatsiyalar balansining salbiy saldosi qoplamasa, yoki aksincha to'lov balansining aktiv saldosi kapital harakati mablag'larining salbiy saldosi qoplamasa va nihoyat ikkala balans ham sof salbiy qoldiqqa ega bo'lsa, mamlakatda ilgari to'plab qo'yilgan valyuta zaxiralari tashqi qarzni qoplovchi ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro savdning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va bir tizimga keltirish har qaysi mamlakat uchun nihoyatda muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Buning uchun maxsus-ilmiy iqtisodiy tadqiqotlar o'tkazish talab qilinadi. Bunday tadqiqotlar hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga xos jarayonlarni chuqur o'rganish bilan birga, ilg'or hisob-kitob usullaridan foydalanishni taqozo qiladi. Jumladan, bu tarmoqlararo balanslar tuzish usullariga asoslanmog'i lozim. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni bashorat qilganda, tovar aylanishidan tashqari transport, kreditlar, va boshqa moliyaviy operatsiyalar, ilmiy texnik axborotlarning importi-eksporti, yirik ko'lamdagi loyihalarni amalga oshirishdagi xalqaro hamkorlik kabi tashqi aloqalarning turlari ham hisobga olinadi. Quyidagi yo'nalishlar katta istiqbolga ega:

1. Qishloq ho'jaligining unumdorligini oshirish mqasadida agrotexnikani (naslchilik va o'simliklar genetikasi, zararkunandalarga qarshi kurash, o'g'itlar, sug'orish ishlari va hokazolarni) rivojlantirish.
2. Tabiiy muhitni saqlash, himoyalash va yaxshilash.
3. Energetika xo'jaligi (atom energiyasi, elektrotxnika, transport energetikasi va hokazolar).
4. Texnik kibernetika.
5. Kosmik fazo tadqiqotlari.
6. Geologiya va okeonografiya.
7. Suv resurslari va sho'r suvlarni tozalash muammolari.
8. Sog'liqni saqlash va aholi o'sishini tartibga solish.

9. Qurilishni yaxshilash va arzonlashtirish.

Hozirgi vaqtda qator ilmiy-texnik axborotlarning xalqaro almashinuvidagi ko'pgina kamchiliklar (takrorlanish, tarqoqlik, bir shaklga keltirishning yo'qligi) samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Axborotlarning xalqaro almashinuvi o'zaro foydalidir, chunki axborotlar (ilmiy, iqtisodiy, texnikaviy va boshqalar) importi uning zaxiralarini oshiradi. Shubxasiz, axborotlarning xalqaro almashinuvning kengayishi nafaqat iqtisodiy, balki umummadaniy nuqtai nazardan ham g'oyat samaralidir. Insoniyat o'z rivijlanishining shunday bosqichiga qadam qo'ydi, endilikda ko'pgina mamlakatlarning hamkorlik aloqalarini talab qiluvchi ulkan loyihalarni amalga oshirish mumkin. Ularni amalga oshirish uchun yirik moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan birga ilmiy-texnik tartibdagi ulush ham zarur. Bu esa bitta davlatning qo'lidan kelmaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy samaradorligi –korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatini baholash ko'rsatkichi bo'lib, ushbu faoliyatning natijalarini va uni amalga oshirishga ketgan harajatlarni o'zaro taqqoslashdan iborat.

Umumiy ko'rinishda tashqi iqtisodiy aloqalarning samaradorligi (samarasi) quyidagi yo'llar orqali aniqlanadi:

- Xalq ho'jaligi darajasida – eksport maxsulotlarini ishlab chiqarishga ketadigan harajatlar, transport va tashqi savdo sarflari, import qilinayotgan o'xshash tovarlarni mamlakatda ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni tejab qolish va import tovarlaridan foydalanishning samarasini aks ettiruvchi import tovarlarning narx bahosiga taqqoslash;
- Eksport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar darajasida – uni ishlab chiqarishga ketadigan harajatlarni tashqi savdo tashkiloti jo'natmalarining eksport foydalanuvi va qo'shimcha to'lovlarning boshqa turlarini hisobga oluvchi boshlag'ich narxlariga qiyoslash;
- Import tovarlarining iste'molchilari (buyurtmachilari);
- Milliy valyutadagi ichki narxlarni (tashqi savdi tashkiloti xalq ho'jaligiga topshiradigan narxlarda) horijiy tovarlardan foydalanishning samarasini hisobga

olgan holda, shu turdagi tovarlarni mamlakatda ishlab chiqarishning tannarxiga (harajatlariga) taqqoslash;

- Eksportchi –tashqi savdo tashkilotlari darajasida –tovarlarni yetkazib berishning topshiriladigan narxlarida ishlab chiqaruvchilarga to'lovlarni (belgilangan ustamalar, transport sarflarini hisobga olgan holda) mamlakat chegaralaridagi narxlarda ifodalangan valyutada qiyoslash;
- Importchi –tashqi savdo tashkilotlari darajasida tovarlar importi uchun (transport va nakladnoy sarflarini hisoga olgan holda) valyutada to'lovlarini milliy valyutadagi transport va boshqa sarflarni chiqarib tashlab, ularning xalq xo'jaligiga (buyurtmachilarga) topshirilish narxlaridagi ichki qiymatini solishtirish;
- Moliya vazirligi darajasida –tashqi savdo almashinuvining saldosi hisobga olgan holda, import tovarlarining ichki narxini (topshirish baxosini) eksport maxsulotlarining boshlang'ich narxiga taqqoslash;

Keltirilgan tahlillar shu asosda korxonaning tashqi iqtisodiy aloqalari samaradorligini aniqlash va uni oshirish yo'llarini ishlab chiqishga ijobiy ta'sir qiladi.

Eksport va import samaradorligining xalq xo'jaligi darajasidagi o'zaro bog'liqligi:

Eksport-import samaradorligi	Ishlab chiqarish samaradorligi	Eksportning byudjet samaradorligi
Eksport maxsuloti ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar. Tashqi savdoning xalq xo'jaligidagi samaradorligi. Import qilinayotgan tovarlarga o'xshash tovarlarni	Sanoatning boshlang'ich narxi. Tashqi savdodan keladigan xalq xo'jalik samarasi. Importning xalq xo'jaligidagi samaradorligi. Import tovarlarini xalq	Maxsulot eksportidan tushadigan valyuta daromadi. Davlat byudjetining tashqi savdodan oladigan samarasi. Importning byudjet samaradorligi. Tovarlarini import qilishga

mamlakatda ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar. Import tovardan foydalanishning samaradorligi.	xo'jaligiga (buyurtmachiga) topshirish narxlari.	ketadigan valyuta harajatlari.
--	--	-----------------------------------


II BOB: Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishining asosiy xususiyatlar

2.1. Yaponiya tashqi savdo-iqtisodiy aloqalari rivojlanishining bosqichlari

Jahon xo'jaligi tarixidan ma'lumki, Yaponiya 1950-yillargacha agrar mamlakat sifatida tan olinar edi. Ammo 1960-yillarga kelib, jahonda yetakchi davlatlar hisoblangan AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi mamlakatlar Yaponiya jahon xo'jaligida "iqtisodiy mo'jiza"ga erishganini tan olishdi. Yaponiya sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyati bo'yicha jahonda AQSHdan so'ng ikkinchi mamlakatga aylandi. Yaponiya bozor iqtisodiyotiga o'tilganligi tufayli, deyarli bir avlod hayoti davomida iqtisodiy jihatdan o'zini tiklabgina qolmay, jahonda eng yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin oldi.

2.1.1.Diagramma.

1960-2010yillar mobaynida Yaponiya YaIMsining dinamikasi¹⁷



Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va unda davlatning faol ishtroki Yaponiyaning o'ziga xos xususiyatidir. Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarini o'ziga qamrab olgan va uni tartibga solib turadi, ichki va tashqi axvolni taxlil qilishdan boshlab, tashqi iqtisodiy startegiyani ishlab chiqish,

¹⁷ <http://www.tradingeconomics.com/japan/gdp>

geografik va tarkibiy sohalarni muhimligini aniqlab, nazorat qilish va tartibga solishda moliyaviy rag'batlantirish uslublarini qo'llaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda puxta o'ylangan davlat siyosati, davlatni rivojlantirishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni asosiy ta'sirchan omillardan biriga aylantirdi. Bu siyosat Yaponiyaning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda jahon xo'jaligiga uni yirik xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va moliyaviy savdo markaziga, jahon iqtisodiyotiga qo'shilishi uning salmoqli qatnashchisiga aylantirdi. Xalqaro iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishida qonunchilik, administrativ-huquqiy, iqtisodiy va norasmiy kabi bir birini to'ldiruvchi uslublardan keng foydalaniladi. Bu esa, oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda Yaponiya amaliyoti keng-huquqiy normativ bazaga tayanadi. Qonuniy va huquqiy-administrativ tartibga solish sistemasj ustivorlik asosida namoyon bo'lib, uni cho'qqisida valyuta almashish va tashqi savdo to'g'risidagi qonun, davlatning umumiy tartibga solish konsepsiyasi sifatida faoliyat chegaralarini belgilaydi.

Bu qonunda xalqaro valyuta fondi, butunjahon savdo tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning kodeksidan asosiy prinsiplar – savdoni erkinlashtirish haqidagi xalqaro shartnomalar, erkin va har tomonlama savdo prinsiplari mavjudligi tufayli uni erkin deb hisoblash mumkin. Erkin tashqi iqtisodiy operatsiyalar prinsipidan kelib chiqib, oddiy hollarda faqat minimal darajada davlat nazoratini nazarda tutadi. Transaksiyalarni litsenziyalash sistemasini joriy etishga faqat favqulotda holat bo'lsagina yo'l qo'yiladi (masalan, mamlakatning to'lov balansi keskin yomonlashganda).


Chegaralarni belgilash xarakteriga ega bo'lgani uchun tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda u yoki bu soxalarga tegishli qonun osti aktlarni dastlab tartibga solish vazifasini yuklaydi. Majburiyatlarni bunday taqsimlash yaponlar fikricha xalqaro iqtisodiy sharoitni o'zgarishiga to'g'ri baho berish va milliy xo'jalikni rivojlantirishda to'liqroq shu holatlarni hisobga olishga yordam beradi va yangilanishga ham yo'l ochadi. Qonunchilik aktlarining "2-qavati" tashqi

iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni asosiy bloki haqidagi qonundan tashkil topgan: eksport-import operatsiyalari; bojxona – tarif sohasi; tashqi savdoga xizmat ko'rsatish (eksport inspeksiya haqidagi qonun, tashqi savdoni sug'urta qilish, Yaponiyaga importni rivojlantirish va chet-elning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini jalb qilish to'g'risida favqulotdagi choralar, banklarda, sug'urta bazasida, qimmatli qog'ozlar va birjalarda va h.k.). Texnik talablar va standartlar (sanoatda standartlashtirish haqidagi qonun va boshqalar); intellektual mulk huquqi (patentlar, avtorlik huquqi va h.k.)

Piramidaning asosida quyida aytib o'tilgan qonunlarni bajarish va rivojlantirish uchun qabul qilingan ko'p sonly normative aktlar yotadi. Ularga birinchi navbatda hukumat qarorlari, buyruqlari, vazirliklar topshiriqlari va hokazolar kiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat haqidagi kompleks qonunning mavjudligi hamda qonunchilik aktlari amalda faoliyatning hamma shakllarini tartibga soladi.

2.1.2. Diagramma.

1980-2012-yillarda Yaponiya tashqi savdosi dinamikasi¹⁸



Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona boshqaruvi iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish bilan chambarchas bog'liq. Tarifni 60-70-yillarga nisbatan pasayishiga qaramasdan, bojxona tarifi milliy ishlab chiqaruvchilarni, avvalo agrar kompleksda

¹⁸ <http://www.tradingeconomics.com/japan/gdp>

va boshqa “nozik soxalar”ni himoya qilishda muhim omil bo’lib qolmoqda. Qo’yilgan vazifalarni bajarishda bojxona tariflarining keng differensiatsiya qo’yilmalari yordam beradi.


Xalqaro kelushuvlarni butunjahon savdo tashkiloti doirasida “o’zaro tariflarni pasaytirish” shartini bajargan holda Yaponiya importni tarifsiz tartibga solishni ham faol saqlab qolmoqda. Importni samarali chegaralash vositasi sifatida qat’iy texnik talablar va standartlar, sertifikatlar, sifat tekshiruvi, texnik havfsizlik va boshqa usullar kenk qo’llaniladi.

Qo’llab quvvatlash va rag’batlantirish chora tadbirlari tizimi. Tashqi iqtisodiy faoliyati davlat tomonidan samarali tartibga solish ko’pincha tashqi iqtisodiy strategiyani asosli ravishda ishlab chiqish hisobidan ta’minlanadi. Bunda davlatning manfaatlari va imkoniyatlari, alohida pog’onalarda rivojlanishi hamda kelajak istiqbollari har tomonlama hisobga olinadi.

90-yillar tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi sifatida yangi iqtisodiy tartib yaratish va uni rivojlantirishda davlatning faol ishtiroki e’lon qilingan. Unda tadbirkorlar faolligini globalashtirishga xizmat qiluvchi xalqaro qoidalarni ishlab chiqish, iqtisodiy chegaralarni kengaytirish, mablag’lar harakatini shakllantirishning yangi normalari va chet el investitsiyalari, texnologiyalari, intellektual mulkni himoya qilish; standartlarni moslashtirish haqida aytib o’tilgan. Rivojlangan davlatlarning makroiqtisodiy va valyuta-moliya siyosatini koordinatsiyasini kuchaytirish, xalqaro iqtisodiy siyosatni kuchaytirish, tashqi savdo disbalansini tartibga solish, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni qo’llab – quvvatlash kabi masalalarga katta ahamiyat berilyapti. G’arb va sharq muammolariga adekvat javob uchun ham alohida e’tibor qaratilgan sharqiy evropa davlatlarining jahon xo’jaligiga kirish harakatlarini qo’llab quvvatlashda konsultativ-texnik yordam berishdir.

2.1.3. Diagramma.

1980-2012-yillarda Yaponiya eksportining statistikasi¹⁹



Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda iqtisodiy dastaklar muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport-import operatsiyalarini va yaponiya kompaniyalarini horijiy investitsiyalar bilan kreditlashda Yaponiyaning Eksimbanki samarali faoliyat olib boradi. Mamlakatda soliq imtiyozlari tizimi mavjud bo'lib shu bilan birga bironta ham davlatda qo'llanmaydigan ham eksportni, ham importni rag'batlantirishga yo'naltirilgan tizim mavjud. Tashqi iqtisodiy faoliyaning rivojlanishiga o'z masshtabiga ko'ra dunyoda eng yirik diversifikatsiyalangan, milliy iqtisodiyotni turli xildagi xavflardan ishonchli himoya qiluvchi savdoni sug'urtalash va investitsiyalash davlat tizimi qulay sharoit tug'diradi. U savdoni umumiy sug'urtalash, valyuta risklarini sug'urtalash, eksport veksellari, eksport obligatsiyalari, import uchun avans to'lovlari, horijiy investitsiyalar, horijiy korxonalar uchun kreditlarni o'z ichiga oladi.


Shuningdek davlat tashqi iqtisodiy aloqalarga xizmat ko'rsatishni uyushtiruvchi sifatida ham ishtrok etadi va bu faoliyatni byudjet maglag'lari bilan moliyalashtiradi. Bu tartib ko'ptarmoqli harakterga ega bo'lib, u marketing axborotlarini yeg'ish va tahlil qilish axborot, axborot-konsultativ xizmatlarini ko'rsatish, reklama - ko'rgazma ishlarini tashkil etish kabi faoliyat sohalarimi

¹⁹ <http://www.tradingeconomics.com/japan/exports>

qamrab oladi. U tashqi iqtisodiy faoliyatni samaradorligini oshirishga va uning yangi ishtirokchilarni jalb qilib qo'shilishiga yordam beradi.

2.1.4. Diagramma.

1980-2012-yillarda Yaponiya importining statistikasi²⁰



Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtorkining, muhim yo'nalishi bu tijorat ishlarining axborot ta'minoti, horijiy tijorat axborotlarni to'plash va tahlil qilishdan iborat. Bu keng masshtabli faoliyatga Tashqi ishlar vazirligi, tashqi savdo va sanoat vazirligi, Ilm va texnika boshqarmasi, Iqtisodiyotni rejalashtirish boshqarmasi va boshqa tashkilotlar jalb qilingan. Bu qatordan 1958-yilda tashkil etilgan Yaponiya tashqi savdosini rivojlantirishga ko'maklashuvchi tashkilot (JETRO) alohida o'rinni egallaydi. JETRO notijorat tashkilot bo'lib uni hukumat butkul moliyalashtiradi. JETRO jahon tovar bozorlarini o'rganish, marketing axborotlarini yeg'ish va tahlil qilish, chet elda Yaponiya maxsulotlari ko'rgazmalarini va Yaponiyada boshqa davlatlar maxsulotlarining ko'rgazmalarini uyushtirish, reklama va nashriyot ishlari bilan shug'ullanadi. JERTOning 79ta vakolatxonalari 56ta horijiy mamlakatlarda ish olib boradi. Yaponiyaning o'zida esa bu tashkilotning 33ta bo'limi mavjud.

²⁰ <http://www.tradingeconomics.com/japan/imports>

Ko'p davlatlarda rivojlangan tarmoqlarning turli xil muassasalariga ega bo'lib, JETRO dunyodagi eng yirik axborot manbalaridan biridir. Uning ma'lumotlar bazasi g'oyat katta ma'lumotlar va shu bilan birga horijiy eksportyorlar va yaponiya importelarining keng ro'yxati bilan ishlaydi. JETROning Yaponiya hududida 31ta va horijda 28ta axborot markazlari mavjud.

Yapon tashqi iqtisodiy kompleksining samaradorligi ma'lum darajada TIFning institutsional asoslarining mustaxkamligidan iborat. Bu sohani davlat boshqaruvi idoralari tizimida administrativ, koordinatsion va konsultativ idoralarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Davlat administrativ idoralari ichida, davlat tashqi savdo va sanoat siyosatini ishlab chiquvchi va muvofiqlashtiruvchi Tashqi savdo va sanoat vazirligi (TSSV) alohida o'rin tutadi. TSSV horijiy davlatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo bilan bog'liq valyuta muammolarni hal qilish, eksportga yo'naltirilgan maxsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlash, litsenziyalangan tovarlar import kvotalarini belgilash, importga ruxsat berish, munosib savdo qoidalarini aniqlashni ta'minlaydi. Bu vazirlik iqtisodiyotni rejalashtirish va tarkibiy qayta qurishda, birinchilik tomonga yetaklovchi choralarni qo'llashda muhim rol o'ynaydi, u ichki bozorni, yuqori texnologik va nosanoat sohalarni rivojlantirish, eksportni ko'paytirish bilan birga horijiy investitsiyalarni ko'paytirish, raqobatbardosh, axborotlarga boy iqtisodni yaratish, tashqi savdo disbalansini qisqartirish va energetik resurslar va hom-ashyo tovarlar importiga qaramlikni kamaytirish bilan shug'ullanadi.

Savdo-iqtisodiy siyosatining ketma-ketligi va muvofiqligi ma'lum darajada hukumat koordinatsion muassasalararo idoralari hisobidan ta'minlanadi. Koordinatsion muassasalar tarkibiga – Savdo kengashi, Iqtisodiy masalalar bo'yicha vazirlar kengashi, Tarkibiy islohotlar o'tkazish bo'yicha hukumat va hukumdor partiya hamkorligi shtabi va boshqalar kiradi. TIFni boshqarishda Yaponiya tuzimining o'ziga xos xususiyati konsultativ organlarning miqdori ko'pligidadir. Ularning soni 200dan ortiq bo'lib, ular turli darajalarda, hatto hukumat va bosh vazirgacha faoliyat olib boradi. Ular tarkibida nafaqat amaldorlar

balki jamoat va akademiklar doirasi vakillari, ishbilarmonlar ham bo'lib, ular tashqi iqtisodiy siyosat masalalarida konsensusga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi davlat va biznesning o'zaro ta'siri paradigmasi bilan farqlidir. Uning asosida xususiy doira sektorining davlat siyosatining muhim strategik yo'nalishlarini qabul qilish, bu sektorning o'ziga xos "davlat mentaliteti" yotadi. Bunday boshqarish modelida faqatgina qattiq ma'muriy chora tadbirlar balki ularni to'ldirib turuvchi "yumshoq" tadbirlar ham ishlatiladi, ular o'z navbatida bozor qununiyatlari bilan uzviy bog'lab, davlat siyosatining samaradorligini bilinarli darajada oshirishga imkon yaratadi.

2.1.1.Jadval.

Yaponiya yalpi ichki maxsulotining o'sish sur'atlari²¹

2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
2.9%	0.2%	0.3%	1.4%	2.7%	1.9%	2%	2.4%	-1.2%	-6.3%	3.9%	1.4%


Jadvaldan ko'rib turganimizdek Yaponiya YaIMsining o'sish sur'ati 2000-yilda 2,9%ni tashkil etgan bo'lsa 2001 va 2002-yillarda bu ko'rsatkichlar 0,2 va 0,3%ni tashkil etib, keskin pasayganini kuzatishimiz mumkin. 2003- yilda YaIMning o'sish sur'ati 1,4%ga chiqib oldi va 2004-yilda 2,7% gacha ko'tarilib, 2005-yilda yana 0,8% gacha pasayganini kuzatishimiz mumkin. 2006-yilda birozgina ko'tarilib 2%ni tashkil etdi, 2007yilda ham biroz ko'tarilishni ko'rishimiz mumkin. Ammo jahon moliyaviy inqirozi Yaponiya iqtisodiyotiga bilinarli darajada ta'sir ko'rsatganligi tufayli 2008-yilga kelib YaIMining o'sish sur'ati manfiy bo'lib -1,2%ni, 2009-yilda esa inqirozning iqtisodiyotga ta'siri yanada kuchaydi va YaIMning o'sish sur'ati keskin pasayib -6,3%ni tashkil qildi. Yaponiya hukumatining inqizorga qarshi samarali kurashi natijasida 2010-yilda

²¹ Japan GDP Data & Country Report Global Finance.mht

YaIMning o'sish sur'ati ancha ko'tarilib 3,9%ni tashkil qilib, 2011-yilda u yana 1,4%ga tushib qoldi. Bu o'zgarishlarni quyidagi grafikda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

2.1.5. Diagramma.

Yaponiya yalpi ichki maxsulotining o'sish sur'ati grafigi²²




Yaponiya tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda davlatning roli katta bo'lib, bu faoliyat quyidagi qonunlar va meyoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi: valyuta ayirboshlash va tashqi savdo to'g'risidagi qonun. Bu qonunga asosan mamlakat tashqi savdosi Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti tamoyillariga asoslangan bo'lib, mamlakatlararo savdoni erkin bo'lishini ta'minlaydi, shu bilan birga davlat litsenziyalash va boshqa cheklash usullarini ham qo'llaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish Yaponiya iqtisodiyoti tarixida mamlakatdagi iqtisodiy holat va maqsadlarga bog'liq bo'lgan Jahon savdo tashkilotiga a'zo sifatida boj ta'riflarini kamaytirishga qaratilgan siyosat olib borish bilan birga notarif usullardan keng keng qo'llaniladi. Jumladan standartlar, sertifikatlar, ekologik talablar juda yuqori. Davlatning tartibga solishi quyidagi yo'nalishlarda yuz beradi:

²² Japan GDP Data & Country Report Global Finance.mht

1. Valyuta kursi. (Yaponiya juda uzoq yillar mobaynida yenaning kursini past ushlab turish bilan eksportchilarni rag'batlantirgan)
2. Boj tariflari. Jahon savdo tashkiloti a'zosi sifatida tashqi savdoni tartibga solishda 70-yillardan boshlab tariflarning roli kamayib brogan, hozirda ular faqatgina agrar sohada saqlanib qolgan.
3. Notarif metodlar, ya'ni litsenziyalash, sertifikatlash, standartlash, ular Yapoiyada juda keng qo'llaniladi.
4. Tashqi savdoni sug'urtalash tizimidan foydalanish.
5. Tijorat faoliyatini axborot bilan ta'minlash.

2.1.6. Diagramma.



Yuqoridagi diagrammadan biz Yaponiya YaIMsining 11 yil davomidagi dinamikasini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Jahon Bankining tadqiqotlariga ko'ra Yaponiya yalpi ichki maxsuloti 5 498 mlrd. dollarni yoki jahon iqtisodiyotining 8,87%ni tashkil etmoqda. Tarixan 1960-2010 yillar mobaynida Yaponiyaning o'rtacha YaIMsi 2266.10 mlrd. dollarni tashkil etgan, uning eng baland ko'rsatkichi 2010-yilning dekabr oyida 5 497,81mlrd. dollarga yetganda, va eng

²³ www.tradingeconomics.com | The World Bank Group

past ko'rsatkichi 1960-yilda 44,31mlrd. dollarga tushib ketganda belgilangan. Yaponiyaning industriallashgan va erkin bozor iqtisodiyoti dunyoning ikkinchi yirik iqtisodiyoti o'rnini eggalab kelgan. Uning iqtisodiyoti xalqaro savdoga bog'liq sohalarda yuqori samarador va raqobatbardosh bo'lib, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi davlat tomonidan ximoyalanuvchi sohalarda esa samaradorlik ancha past. Yaponiya texnika va sanoat ishlab chiqarishida yuqori malakali industriallashgan ishchikuchiga ega uning investitsiyalash darajasining yuqoriligi, jamg'armalari, industrial rivojlanishi va xalqaro savdosining yetakchiligi yetuk iqtisodiyot barpo qiladi. Yaponiya tabiiy boyliklarga kambag'al mamlakat bo'lganligi tufayli u ishlab chiqarishda zarur hom ashyo materiallarini sotib olib xalqaro savdoda qatnashadi, ammo oxirgi yillarda Yaponiya iqtisodiyoti bir qator sabablarga ko'ra hom ashyo emas balki tayyor maxsulotlar sotib olishga o'tgan.

2.2. Yaponiya tashqi savdo aylanmasi o'zgarishi tahlili

Yaponiya yuqori darajada rivojlangan mamlakat bo'lib, postagrar-sanoatlashgan davlat hisoblanadi. Avtomobil, kema, maishiy texnika, sanoat robotlari, dastgohlar ishlab chiqarish va baliq ovlash bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Yaponiya deyarli butun dunyo mamlakatlari bilan savdo sotiq qiladi. Dunyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan namunali tajribaga ega bo'lgan davlatlardan biri bu Yaponiyadir. Yaponiyaning "Iqtisodiy mo'jiza"sini "G'arbga yetib olish" degan shiori va rivojlangan mamlakatlarning ilmiy-texnikaviy va xo'jalik yuritish bilim va tajribalarini o'zlashtirish asosidagi iqtisodiy siyosat oqibati sifatida ko'rib chiqish mumkin. G'arb tadqiqotchilari, Yaponiya tajribasini o'rganib mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xosligi va boshqalardan ajralib turishini alohida ta'kidlab o'rtishadi. Sanoatning yuqori darajalarda o'sishi, iqtisodiyotni yapon uslubida boshqarishning xususiyatlari, krizis sharoitlarida tez moslashuvchanlik, uning moslashuvchanligi bu mamlakatning o'ziga xosligi bilan asoslanadi. Bunga yaqqol dalil sifatida, misol uchun, sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida xom-ashyo va yoqilg'i bilan ta'minlanganlik darajasi eng

past va mamlakat butunlay ko'p turdagi mineral va qishloq xo'jaligi xomashyolarining importiga bog'langanligini keltirishimiz mumkin. Aynan tabiiy resurslarga kambag'allik darajasi xalqaro savdoni rivojlantirishning rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Tabiiy resurslarga kambag'al bo'lgan mamlakat jahon iqtisodiyotiga g'oyat muvaffaqiyatli kirib keldi. Avval Yaponiya jahonda qayta ishlash sanoati markaziga aylandi, keyinchalik ilmiy-texnik sohalar rivojlandi. Bugungi kunda Yaponiya zamonaviy iqtisodiyotning katta ahamiyatga ega savdo mamlakatlarining biridir. Yaponiya iqtisodiyoti yoqilg'i energiyasi va sanoat xomashyosini import qilish bilan bog'liq. Bugungi kunda import tarkibi sezilarli darajada o'zgargan: xomashyo maxsulotlarini emas, balki tayyor maxsulotlarni olib kirish birinchi o'ringa qo'yilgan. Yaponiya uchun uning shakllanishining barcha bosqichlarida savdo balansining saldosi ijobiy bo'lganligini ham alohida takidlab o'tish lozim. Ammo ko'p yillar davomida mamlakat iqtisodiyatiga mablag'lar oqimini ta'minlab turgan Yaponiya tashqi savdosi pasayishga moyilligi kuzatilmoqda.

Yaponiya iqtisodiyoti raqobatbardosh davlat yaratish va rivojlantirish uchun yordam beradigan tashqi iqtisodiy aloqalar qurishga yo'naltirilgan. Yaponiya iqtisodi uchun tashqi savdoga ixtisoslashuv harakterlidir. Savdo aylanmasi hajmining kattaligiga qaramasdan axoli jon boshiga to'g'ri keladigan tashqi savdo ko'rsatkichini (2010 y. – 12189,37 AQSH dollari) baland deb aytib bo'lmaydi chunki axoli soni bo'yicha Yaponiya dunyoda o'ninchi o'rinni egallaydi.

Tabiiy resurslardan mahrum bo'lgan mamlakat uchun tashqi savdo hayotiy muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport masshtabi import uchun zarur valyuta jamg'arishga kerak mablag' darajasidan ancha oshadi. Boshqa davlatlarga sotiladigan 98,6% tayyor maxsulotlarga to'g'ri keladi, ulardan 74,1% - avtomobil va uskunalarga to'g'ri keladi. Tashqi savdo aylanmasi bo'yicha u 2009-yilda(1006,9mlrd. AQSH dollari) faqat AQSH, GFR va Xitoyga joy bo'shatib turibdi.

2.2.1. Jadval.

2002-2012-yillar mobaynida Yaponiya tashqi savdo aylanmasi²⁴

Birlik:(1,000YEN)


YIL	SAVDO AYLANMASI	EXPORT	IMPORT
2002	94336461680	52108955735	42227505945
2003	98910373524	54548350172	44362023352
2004	110386615440	61169979094	49216636346
2005	122605936338	65656544157	56949392181
2006	142590466464	75246173392	67344293072
2007	157067358039	83931437612	73135920427
2008	159972837533	81018087607	78954749926
2009	105669991867	54170614088	51499377779
2010	128164583536	67399626696	60764956840
2011	133657662126	65546474948	68111187178
2012		16152607842	17693188904

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Yaponiya iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'sish sur'atlari muntazam ortib borayotgan bir paitda qaytadan jadal rivojlanish yo'liga chiqib olish uchun juda ko'p mashshaqat talab qilindi. 2011-yilda to'lov qobiliyati usuli bilan hisoblangan tashqi savdo aylanmasi 1595,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi.

²⁴ Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance /<http://mof.go.jp/english/>

2.2.1. Diagramma.

Yaponiya savdo balansining 2002-2012 yillar mobaynida o'zgarishi²⁵




Yuqoridagi diagrammada Yaponiya savdo aylanmasining dinamikasi aks ettirilgan bo'lib, unda 2002-yildan to 2008-yilgacha muntazam o'zishni kuzatishimiz mumkin, faqatgina 2006-yilda ko'rsatchich manfiy darajasga tushgan. 2009-yildagi keskin tushish jahon moliyaviy inqirozining Yaponiya iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir qilganligida deb asoslash o'rinlidir. Keying yillarda savdo aylanmasida ko'tarilishlar kuzatilib, hukumatning inqiroz asoratlariga qarshi chora tadbirlar samara berganligini kuzatishimiz mumkin. Ammo 2011-yilda ko'rsatkich yana manfiy tus olib, 2012-yilda u yanada tushganini ko'rib turibmiz.

²⁵ Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance /<http://mof.go.jp/english/>

2.2.2. Diagramma.

Yaponiya eksportining statistikasi 2002-2012²⁶




Yuqorida berilgan grafik Yaponiya eksporti va importining 2002-2011 yiillar mobaynidagi o'zari nisbati berilgan. Unga ko'ra 2002-yildan to jahon moliyaviy inqirozi sodir bo'lgunga qadar ya'ni 2008-yilgacha eksport ulushi muntazam o'sib kelgan, 2007-2008-yillarda esa eksport eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan. 2008-yilda eksport va import deyarli bir nuqtada to'qnash kelganini ko'rishimiz mumkin. 2008-yildan so'ng 2009-yilda jahon moliyaviy inqirozining ta'siri tufayli tabiiyki eksport keskin tushib ketdi. Eksport birozgina ustunlik qilib ijobiy saldo kuzatilgan bo'lsada mamlakat iqtisodiyoti tang ahvolga tushib qoldi. 2010-yilda bu ko'rsatkichlarni bir oz yaxshilashga erishildi.

²⁶ Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance /<http://mof.go.jp/english/>

2.2.3. Diagramma.

Yaponiya importining statistikasi 2002-2012²⁷




Yaponiya tabiiy resurslarga kambag'alligi tufayli ularni import hajmi bo'yicha dunyoda oltinchi o'rinni egallaydi, ammo shu bilan birga u o'zining yaxshi rivojlangan yuqori texnologiyalari, mashinasozlik, avtomobilsozlik, kemasozlik tufayli dunyodagi yirik eksporter mamlakat hamdir (eksport hajmi bo'yicha u dunyoda to'rtinchi o'rinni egallaydi). Ammo shuni ham takidlab o'tish kerakki mamlakatning xalqaro savdoga aralashishida pasayish kuzatilmoqda. Mamlakat xalqaro savdoga jalb qilinganlik indeksi bo'yicha, Xalqaro iqtisodiy forumning hisob-kitobiga ko'ra mamlakat 23-o'rinni egallab turmoqda (2009-yilda bu indeks 4,78%ni tashkil qildi).

²⁷ *Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance* /<http://mof.go.jp/english/>

2.2.4. Diagramma.

Yaponiyaning yirik eksport hamkorlari²⁸



Yaponiya iqtisodiyotida AQSHning ahamiyati har doim ham muhim joy egallab kelgan, hozirgi kunga kelib Xitoy ham Yaponiya iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yaponiya asosan texnika, mashinasizlik, kemasozlik, robotchilik, innovatsiyalar, nanotexnologiyalarda katta yutuqlarga, natijalarga erishgan mamlakatdir va u asosan AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Gong Kong, Singapur Germaniya va boshqa mamlakatlarga asosan shu sohalarda yuqori sifatli maxsulotlarni eksport qiladi. Shu bilan bir qatorda Yaponiya o'z iqtisodiyotini ko'proq investitsiyalar kiritish, bank tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion g'ayalarga qaratgan.


Yaponiya importida eng yirik hamkor o'rniga hozirda Xitoy ko'tarilib olgan. Ma'lumki Xitoy hozirda nafaqat Yaponiya balki butun dunyo xususan Evropa ittifoqi mamlakatlari va AQSHning ham yirik hamkorlaridan biridir. Hozirda Yaponiyaning ko'plab korporatsiyalari ishlab chiqarishini Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Gong Kong, Tayvan, Malayziya, Indoneziya, Avstraliya kabi

²⁸ Ma'lumotlar asosaida muallif tomonidan tuzilgan

mamlakatlarga joylashtirgan, shuning uchun ham bu mamlakatlar Yaponiyaning yirik import hamkorlariga aylangan.

2.2.5. Diagramma.

**Yaponiyaning yirik import
hamkorlari²⁹**



Yaponiya importida eng yirik hamkor o'rniga hozirda Xitoy ko'tarilib olgan. Ma'lumki Xitoy hozirda nafaqat Yaponiya balki butun dunyo xususan Evropa ittifoqi mamlakatlari va AQSHning ham yirik hamkorlaridan biridir. Hozirda Yaponiyaning ko'plab korporatsiyalari ishlab chiqarishini Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur, Gong Kong, Tayvan, Malayziya, Indoneziya, Avstraliya kabi mamlakatlarga joylashtirgan, shuning uchun ham bu mamlakatlar Yaponiyaning yirik import hamkorlariga aylangan.

Yaponiya tashqi savdosining tovar tarkibi xalq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq va qator omillar ta'sirida shakllanadi ya'ni tabiiy va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalar va hokazo. U milliy

²⁹ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini va xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini aks ettiradi.

2.2.2.Jadval.


2000-2008-yillarda Yaponiya importuning tovar tarkibi³⁰.

XSSK bo'limlari	2000		2008		O'rtacha yillik o'sish sur'ati (%)
	Narx (mln.AQSH dol.)	%	Narx (mln.AQSH dol.)	%	
Hammasi,shu jumladan:	379662,9		762533,9		109,11
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik jonivorlar	40976	10,79	53712,4	7,04	103,44
Ichkiliklar va tamaki	4895,9	1,29	6223	0,82	103,04
No oziq-ovqat hom-ashyolari (yoqilg'idan tashqari)	25809,6	6,80	54841	7,19	109,88
Mineral yoqilg'i, moy va shu kabi materiallar	77488	20,41	267784,3	35,12	116,77
Kimyoviy mahsulotlar	25747,7	6,78	54543,3	7,15	109,84
Materiallar bo'yicha klassifikatsiyalangan va ishlov berilgan mahsulotlar	35398,8	9,32	67685,1	8,88	108,44
Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari	105924,3	27,90	158860,3	20,83	105,20
Xar hil ishlov berilgan (tayyor) mahsulotlar	56387,7	14,85	83952,7	11,01	105,10

³⁰ International Trade Statistics Yearbook. Vol/, New-York, UN, 2000, 2008 online. (www.comtrade.un.org)

XSSK bo'limlariga kiritilmagan mahsulotlar va kelishuvlar	6440,7	1,70	13196	1,73	109,38
--	--------	------	-------	------	--------

Jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, 2000-yilda Yaponiyaning importi asosini mineral yoqilg'i, moy va shu kabi materiallar, shuningdek mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari tashkil qilgan-ikkinchisi yetakchi o'rinni egallab, mamlakat importidagi ulushi 27,90%. 2008-yilda birinchi o'ringa mineral homashyo ko'tarildi, uning ulushi bir yarim barobardan ham oshdi, o'rtacha yilli o'sish sur'ati esa 116,77% tashkil qildi, bu esa uning dinamik ravishda rivojlanayotganidan dalolat beradi. Yaponiyaning tabiiy resurslarga kambag'alligi va yoqilg'i zaxirasiga deyarli ega emasligi tufayli mamlakat bu mahsulotlarni chet-eldan import qilishga majbur. Bundan tashqari mashinasozlikni va yuqori texnologik sohalarni rivojlantirish mineral yoqilg'i, homashyo va kimyoviy maxsulotlarni iste'molini ko'payishiga olib keladi. Bu qandaydir darajada mashina va asbob-uskunalarining mamlakat importidagi ulushi pasayganini ham tushuntiradi, 2008-yilga kelib bu ko'rsatkich choraktadab ham ko'proqqa pasaydi. Import tarkibini quyidagi rasmdan ko'rgazmali ravishda ko'rishimiz mumkin.



(1-Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik jonivorlar; 2- Ichkiliklar va tamaki; 3- No oziq-ovqat hom-ashyolari (yoqilg'idan tashqari); 4- Mineral yoqilg'i, moy va shu kabi materiallar; 5- Kimyoviy mahsulotlar; 6- Materiallar bo'yicha klassifikatsiyalangan va ishlov berilgan mahsulotlar; 7- Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari; 8-Xar hil ishlov berilgan (tayyor) mahsulotlar; 9- XSSK bo'limlariga kiritilmagan mahsulotlar va kelishuvlar;)

2.2.3.Jadval.

2000-2008-yillarda Yaponiya eksporti tovar tarkibi³¹

XSSK bo'limlari	2000		2008		O'rtacha yillik o'shish sur'ati (%)
	Narx (mln.AQS H dol.)	%	Narx (mln.AQSH dol.)	%	
Hammasi, shu jumladan	479247,6		781412,2		106,30
No oziq-ovqat hom-ashyolari (yoqilg'idan tashqari)	3269,6	0,68	10227,1	1,31	115,32
Mineral yoqilg'i, moy va shu kabi materiallar	-	-	18775,8	2,40	-
Kimyoviy mahsulotlar	33906	7,07	69136,6	8,85	109,31
Materiallar bo'yicha klassifikatsiyalangan va ishlov berilgan mahsulotlar	47916,6	10,00	97629,7	12,49	109,30
Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari	328476,2	68,54	484399,1	61,99	104,98
Xar hil ishlov berilgan (tayyor) mahsulotlar	43988,4	9,18	55186,9	7,06	102,88

³¹ *International Trade Statistics Yearbook. Vol./,New-York,UN,2000, 2008 online. (www.comtrade.un.org)*

XSSK bo'limlariga kiritilmagan mahsulotlar va kelishuvlar	17691,1	3,69	42079,9	5,39	111,44
--	---------	------	---------	------	--------

Yaponiya eksport asosini mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari tashkil qilsada, 2008-yilda mamlakat eksportining 60%idan ham ko'prog'ini tashkil qilgan bo'lsa ham u 2000-yilga nisbatan pasayganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqai o'rtacha yillik o'sish sur'ati ham katta emas, 104,98% va boshqa ko'p eksportlarga nisbatan pastroq. Bu avvalam bor uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga bo'lgan talabni tushishiga olib kelgan jahon iqtisodiy inqirozi bilan bog'liq. Bunday mahsulotlarni aholi iqtisodiy o'sish davrida jadal sotib olishni boshlaydi va ayni paitda aynan shu mahsulotda bozorda ahvol yomonlashgan davrda aholi o'z mablag'larini tejaydi.


O'rtacha yillik o'sish sur'atlarining ko'rsatkichlariga qaraganda end dinamik rivojlanayotgan eksport (Yaponiya umumiy eksportidagi ulushlari qiyosan katta bo'lmasada) bu no oziq-ovqat hom-ashyolari (yoqilg'idan tashqari) va XSSK bo'limlariga kiritilmagan mahsulotlar va kelishuvlardir.



(1- No oziq-ovqat hom-ashyolari (yoqilg'idan tashqari); 2- Mineral yoqilg'i, moy va shu kabi materiallar; 3- Kimyoviy mahsulotlar; 4- Materiallar bo'yicha klassifikatsiyalangan va ishlov berilgan mahsulotlar; 5- Mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari; 6-Xar hil ishlov berilgan (tayyor) mahsulotlar; 7- XSSK bo'limlariga kiritilmagan mahsulotlar va kelishuvlar;

2.2.6. Diagramma.

Yaponiyaning asosiy eksport va import tovarlari (2010)




Manba: Moliya Vazirligi

III BOB: Globallashuv sharoitida Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish yo'nalishlari

3.1 Yaponiyaning xalqaro bozoridagi mavqeini mustaxkamlash muammolari

XX asrning oxiri – XXI asrning dastlabki yillarida Yaponiya yalpi milliy maxsulotining o'sish sura'atlari AQSH va ko'pgina Evropa mamlakatlaridagi muvofiq ko'rsatkichlar bo'yicha ancha ortda qola boshladi: 1990 va 1997 yillar oralig'ida u yiliga 1%ga yetib oldi, 2006 yilda -1,5% (AQSHda -2,6, Shvetsiyada -2,7, Buyuk Britaniyada -2,5%)ni tashkil etdi. YaIMning 1975-2002yillardagi o'rtacha 2,6%ga teng miqdori 2003-2007 yillarda 2,1 ga tushib ketdi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga shuningdek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. BMT mutaxassislarining bergan baholariga ko'ra, 2008 va 2009 yillarda mamlakatdagi ishlab chiqarish muvofiq ravishda 0,6 va 6,5%gacha qisqardi.³²



³² Trade and Development Report, 2009 New York and Jeneva

Industrial siyosatning negizi hisoblanmish Yaponiya moliya tizimi juda tang vaziyatga tushib qoldi: ko'p sonly banklar qayta moliyalashtirishga muxtojlik sezilar, katta qismi esa yopilish holatiga tushib qoldi. Eng muhimi yapon xalqining o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi asta-sekin yo'qolib bordi, bu ayniqsa, siyosat olib borishda qat'iylikning yo'qligi va iste'molchi hamda investorlar tomonidan ishonchning yuqori darajada emasligida namoyon bo'ldi. Yaqin vaqtlarda barchani qoyil qoldirgan, g'ayrik va taqlid predmeti bo'lgan Yaponiya tizimi XXI asrning boshidayoq ochiq tarzda shubxa ostiga olindi va tubdan islohotlarni talab eta boshladi. Bu birinchi navbatda, tuzilmaviy muammolar dolzarbligining o'sib borishi va istiqbolda rivojlanish strategiyasini izlash bilan bog'liq.

2008 yilda yaponiyada 2002 yilda boshlangan iqtisodiy o'sishning eng uzoq davom etgan davri to'xtadi. Noyabr o'rtalarida 2008 yilning 3-kvartali uchun YaIM ko'rsatkichlari e'lon qilingach, iqtisodiyot retsessiya vaziyatiga tushib qolgani rasmiy e'lon qilindi.

Vazirlar mahkamasi devonxonasi 2008 yilning martdan may oyigacha joriy vaziyatni baholab, iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayib borayotgani to'g'risida ma'lumot berdi. Yozda ahvolning yomonlashish belgilari yuzaga kela boshladi, noyabr va dekabr hisobotlarida esa global iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib borishiga bog'liq ravishda, yapon iqtisodiyotining holati sezilarli tarzda yomonlashgani ko'rsatib o'tildi.

2008-yilda YaIMning salbiy tomonga o'zgarishini, birinchi navbatda, mamlakat iqtisodiyoti yil davomida salbiy omillar ta'siriga uchragani orqali tushuntirish mumkin. Ahvolning yomonlashuvi ilk bor 2007 yilda, dunyo bo'yicha energiya manbalari va hom ashyo narxlarining keskin o'sib ketishi bilan boshlandi. Bu holat 2008 yilning o'rtalariga qadar davom etdi. Yaponiya iqtisodiyoti deyarli butunlay hom ashyo, ya'ni neft, ko'mir, tabiiy gaz, temir rudasi, rangli metallar importiga bog'liq, o'zini o'zi faqat 40%gagina ta'minlay oladi.

2008 yilning iyul oyidan neft bahosining pasayib borishiga qaramay, Yaponiya iqtisodiyotidagi muammolar juda ham jiddiy tusga ega bo'lgan edi. 2008 yil sentyabrda Lehman Brothers bankrotlikka uchragach va global inqiroz o'zining

faol bosqichiga o'tishi bilan mamlakatda yuzaga kelgan vaziyat hukumat tomonidan keng miqyosdagi harakatlarni, shu jumladan, biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy tavsifga ega tadbirlarni talab etdi. Sentyabrdan boshlab salbiy oqibatlar yaqqol ko'rina boshladi. 2008 yil oktyabrda Yaponiya Banki rahbari jahon moliyaviy va fond bozorlarida yuzaga kelgan keskinlik Yaponiyaga ham yetib kelganini e'lon qildi. Shunga bog'liq ravishda, bank bashorat qilingan iqtisodiy o'sish sur'atlarini kamaytirdi. Bu holat keyin ham davom etdi.

Amerika moliya tizimidagi hodisalar, birinchi navbatda, bank sektori va fond bozoriga ta'sir ko'rsatdi. 2008 moliya yilining birinchi yarmi natijalariga ko'ra, Yaponiyaning 6ta yirik bank guruhlarida 1trln. yen zarar ko'rdilar. O'sha davrda korporativ bankrotlik soni keskin oshib ketdi. Natijada qaytarilmagan kreditlar hajmi ortib ketdi, shunga bog'liq ravishda banklar korxonalarni moliyalashtirish miqdorini qisqartirdilar. Moliya tanqisligi kichik va o'rtacha kompaniyalarga ayniqsa jiddiy ta'sir ko'rsatdioqibatda inqiroz iqtisodiyotning real sektoriga yoyila boshladi. Jahon iqtisodiyoti o'sish sur'atlarining pasayishi yapon eksportchilari mahsulotlari savdosi hajmining tushib ketishiga olib keldi. Yaponiya iqtisodiyotining tashqi savdo faoliyatiga yuqori darajada bog'liqligi eksport hajmining qisqarish ketidan sanoat ishlab chiqarishining, xususiy sektorlarning asosiy kapitalni investitsiyalash hajmining, bandlik darajasining va shunga muvofiq, aholi daromadlarining qisqarib ketishiga sabab bo'ldi. Bularning barchasi ichki iste'mol talabining torayishiga olib keldi va ijtimoiy sohada vaziyatning yomonlashish xavfini yuzaga keltirdi.

Iqtisodiyotdagi vaziyatning yomonlashuvi va jahon moliyaviy inqirozining real sektorga ta'sirining kuchayib borishiga bog'liq holda, 2008 yilda hukumat iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tadbirlarning uchta paketini tasdiqladi. Hukumat to'rt asosiy yo'nalishga o'z e'tiborini jalb etdi. Birinchi yo'nalish – bu fond bozorini barqarorlashtirish, murakkab vaziyatga tushib qolgan moliyaviy institutlarga beriladigan davlat mablag'lari hajmini oshirish yo'li bilan ichki kreditlash sharoitlarining kelgusida yomonlashib borishini bartarif etish,

shuningdek, xususiy banklarning mayda va o'rta korxonalarga ko'proq kredit taqdim etishi uchun hukumat imtiyozlari tizimini kengaytirish bo'yicha tadbirlarni o'z ichiga olgan moliyaviy tizimni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Ikkinchisi – aholini ijtimoiy himoya qilish. Hukumat fuqarolarga bevosita pulli to'lovlar ajratish, tibbiy va o'quv muassasalariga moliyaviy yordam ko'rsatish, import qilinadigan iste'mol tovarlarining ba'zi turlari narxi ustidan hukumat nazorati tadbirlarining kuchaytirilishi, tibbiy harajatlarning shaxsiy kompensatsiyasi va boshqa shu kabi tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Uchinchisi bandlik masalasi. Hukumat bandlik darajasini o'zgartirmay ushlab turgan, shtatdan tashqari hodimlarni doimiy shtatga o'tkazgan, nogironlarni ishga olgan korxonalarga pulli mukofotlar berish tizimini amalga oshira boshladi. Shuningdek, ish o'rni qisqartirilgan hodimlarga malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun dotatsiyalar taqdim etish, turar joy ijara olish uchun va yangi ish joyi topgunga qadar boshqa harajatlar uchun kreditlar berishni nazarda tutuvchi "xavfsizlik tarmog'i" vazifalari realizatsiyasi jadallashtirildi.

To'rtinchisi, hududlarga yordam ko'rsatish. Jamoat ishlarini moliyalashtirish hamda qishloq ho'jaligi, ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish sohalariga oid regional loyihalarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratildi.

Hukumatning bergan tavsifiga ko'ra, 2008 yilda qabul qilingan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash tadbirlari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlarini yumshatdi, moliyaviy kompaniyalar va sanoat korxonalarining yalpi bankrotga uchrashining oldini olishga yordam berdi, aholining talab darajasidagi ijtimoiy himoyasini ta'minlab berdi. Hukumat iqtisodiyotdagi vaziyat bashorat qilinganidan ham tezroq yomonlashib borayotganini va ushbu inqiroz urushdan keying davrdagi eng jiddiy va chuqur inqiroz ekanini tan oldi.

2009 yil aprel oyida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqirozga qarshi tadbirlarning yangi to'plami qabul qilindi. Mazkur tadbirlarni amalga oshirishga byudjetdan 15,4 trln. yen yoki mamlakat YaIMsining 3% mablag'i sarflandi. Bunda moliyaviy tizim, bandlik va ijtimoiy ta'minot sohasiga moliyaviy yordam ko'rsatish hajmi oshirildi.


Hukumat shoshilinch muammolarni hal etish bilan bir qatorda, tadbirlar paketida alohida yo'nalish – iqtisodiy o'sish strategiyasi bo'yicha uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishga ham harakat qildi. Ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlarini strategic vazifalar qatoriga qo'shish mumkin. Strategiya mualliflari fikricha, aynan mana shular kelajakda “energiya tejamkor jamiyat”ni qurish uchun asos bo'lib hizmat qilishi kerak.

Hukumat ushbu tadbirlar 2009-moliya yilida iqtisodiyotning o'sish sur'atlarni 2%ga oshirishga, 400-500ming qo'shimcha ish joylarini yaratishga imkon beradi, deb hisoblaganlar.

Yaponiyaning iqtisodiy o'sish tajribasidan juda ko'p sonli turli siyosiy saboqlarni olish mumkin bo'lgan yutuqlarini tushuntirib beruvchi sabab yagona emas. Industrial siyosat rolini belgilovchi mehnatni boshqarish tizimi, manzilli kreditlash tizimi, jamiyat tartiblariga hurmat munosabatida bo'lish va mudofaa uchun katta xarajatlarning ajratilmasligini mamlakat erishgan yutuqlar qatoriga kiritish mumkin. Shunga qaramay, iqtisodiy o'sishning hozirgi sustlashuvi yapon modelining tanqidiy jihatdan ko'rib chiqish va chiqarib olinadigan, ayniqsa moliyaviy sector bo'yicha saboqlarni skeptik qayta baholashga olib keldi.

3.1.2. Diagramma.

2000-2012 yillarda Yaponiya tashqi qarzi³³



³³ <http://www.tradingeconomics.com/japan/government-debt-to-gdp>

Moliyaviy inqiroz Yaponiya korporatsiyalari faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tayota, Nissan, Mitsubishi, Sony kabi kompaniyalar eksport bozori keskin qisqardi. Yaponiyalik ekspertlarning fikriga ko'ra shu vaqtgacha yuz bergan inqirozlarga bitta sabab bitta oqibat bog'liqligida baho berilgan bo'lsa, bu inqiroz juda ko'p sabablar va juda ko'p oqibatlarga olib keldi.

Yaponiya korporatsiyalari birinchi galda hududiy diversifikatsiya olib bordi. Ishlab chiqarishni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirdi. Jumladan geografik jihatdan eng qulay bo'lgan mamlakat Xitoyga yirik ishlab chiqarishni joylashtirdi, lekin ularning tarmoq tarkibi o'zgardi. Bu yerda ko'proq resurslarni qayta ishlovchi korxonalar joylashdi. AQSHdagi ba'zi korxonalar Meksikaga ko'chirildi. Bundan tashqari Malayziya, Indoneziya, Tailand, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlariga o'z aktivlarini ko'chirdilar. MDH mamlakatlarida ko'proq resursga tayanadigan ishlab chiqarish joylashgan bo'lsa, Hindiston, Braziliya, Meksikada yuqori texnologik sohalar joylashdi.

Umuman olganda, yuqorida qayd etilgan muammolarga qaramay, Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanish darajasi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda qolmoqda, xalqaro standartlar bo'yicha ishsizlik darajasi ham past, garchi u Yaponiya sharoitlarida nomaqbul hisoblangan darajaga ko'tarilgan bo'lsada.


2011 yil mart oyidagi zilzila va undan keyin ro'y bergan tsunamidan so'ng mamlakatni tiklash 10 dan 15 trln yen(184 mlrd dollar) gacha mablag' talab etadi. Xarajatlarini qoplash uchun mamlakat obligatsiyalar chiqarishi kerak bo'ladi, lekin keyinchalik uning qoplanishi kerakligi haqida unutmazlik joiz. Yaponiya Primyer Ministri Naoto Kan "Zilziladan so'ng tiklash uchun obligatsiyalar chiqarish haqida gapirgan kishilar yodimda. Lekin biz pulni qanday qaytarib berishni mulohaza qilmasdan turib, pulni qarzga olmasligimiz kerak. Agar biz mamlakatni tiklash uchun obligatsiyalar chiqarsak, qancha vaqtdan so'ng pulni qaytara olishimizni hal etishimiz lozim", - deb e'lon qildi. Aprel oxirida yangi iqtisodiy va ijtimoiy choralar boshlanishi va ularni ko'rib chiqish zarurligini e'lon qildi. Bunda 11-mart kuni yuz bergan vayronkor zilzila oqibatlari natijasida mamlakat hayotidagi o'zgarishlar inobatga olinishi kerak edi. Yuqoridagi kurs mamlakatni tezkor

tiklanishiga, iqtisodiyot va ijtimoiy xayot rivojlanishidagi jiddiy o'zgarishlarga, shuningdek mamlakatning atom energetika strategiyasini izchil qayta ko'rib chiqishga ishora etadi. Mo'ljallangan rejani amalga oshirishning aniq yo'nalishlari iyun oyida qabul qilinadi. Reja zilzilaning oqbatlari bilan bog'liq ijtimoiy va moliyaviy ta'minot shunigdek davlat strategiyasining yangi loyihasini ko'rib chiqadi. Xususan bu yilning iyun oyida yagona ijtimoiy va soliq reformalar yo'nalishlari tasdiqlanishi kutilmoqda, bu keyingi 3 yillikda amalga oshiriladi. Reformalar davlatning tiklanish yo'nalishlari shuningek moliyaviy qo'llab quvvatlashni ta'minlashga imkon yaratadi.

Yaponiya Moliya Vazirligi ma'lumotiga qaraganda (10.08.2010) 2010 yilning avgust oyida Yaponiyaning davlat qarzi 904 trln. yen (10,5 trln.\$)ni tashkil qilib, rekord darajaga yetdi. Bunda birinchi marotaba 900 trln. yendan ham oshib ketdi. Yaponiyaning sof qarzi Gretsiyanikidek YaIMning sal kam 120% ini tashkil qiladi. Byudjet difitsiti esa avvalgidek yildan-yilga ko'tarilib bormoqda. Mamlakatning kredit salohiyati yana va yana tushib bormoqda. 20% dan oshiq yillik harajat qarz foizlarini to'lash va qayta moliyalashtirish harajatlarga to'g'ri kelmoqda.

3.1.3.Diagramma.

Mamlakatlarning tashqi qarzlari (YaIMisiga nisbadan % da)³⁴



Yaponiya hukumati iqtisodiyotni tiklash, jahon iqtisodiyotidagi mavqeini ko'tarish maqsadida global iqtisodiy strategiya va yangi iqtisodiy o'sish strategiyasini qabul qildi. Ushbu strategiyaning muallifi so'nggi 40 yil davomida Yaponiya dunyoning ikkinchi iqtisodiyoti bo'lib kelganligi tez orada bu mavqeini yo'qotishini ko'zda tutgan.

Ushbu strategiya "Yaponiya dunyoning yetakchi va kuchli iqtisodiyoti mavqeini saqlab qolish uchun nima qilish kerak?", degan savolga javob berilgan. Buning uchun quyidagi maqsadlar qo'yilgan:

- I. Yangi iqtisodiy o'sish maqsadlariga erishish;
 1. Aholi soni qisqarayotgan sharoitda iqtisodiy o'sish. Bunda urg'u mehnat unumdorligi o'sishiga ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlarini kuchaytirishga, yuqori samaraga ega bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga qaratishga berilgan.
 2. Innovatsiya va talab omad spirali. Bunda innovatsiyalar talabni kengaytirishi, o'z navbatida kengaygan talab, innovatsiyalarni rag'batlantirishi ko'zda tutilgan.

³⁴ <http://www.tradingeconomics.com/japan/government-debt-to-gdp>

Bu yerda ikkita spiral ahamiyati ko'rsatib o'tilgan ya'ni Yaponiyadagi innovatsiyalarni o'sishi Sharqiy Osiyoda ularga bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Keyingi bosqichda bu mamlakatlarning o'zida innovatsiyalar rivojlanadi.

3. Islohotlarni amalga oshirish natijasida yaqin kelajakni ta'minlash. Unga ko'ra Yaponiya dunyoning innovatsiyalar markaziga aylanishi kerak. Uning aholisi esa mamlakatning eng asosiy boyligidir.

II. Yaponiyaning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

1. Yaponiya – Osiyo mamlakatlari hamkorligining omad spirali. Bunda Yaponiya Osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shadi:

- o'zaro kooperatsiyani ko'paytirish;

- investitsiyalar kiritish;

- kapitallar harakatchanligini oshirish;

2. Innovatsiyalarni global markaziga aylanish. Buning uchun dunyoda yetakchilikni ta'minlovchi yangi tarmoqlarni yaratish, yangi materiallar ishlab chiqarish.

3. Yaponiyaga bevosita investitsiyalarni kengaytirish. Ichki talabga bog'liq bo'lgan sohalarga yordam ko'rsatish.

III. Informatsion texnologiyalar vositasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

IV. Mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishini va kichik o'rta biznesni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish.

Yaponiya – yuqori darajada rivojlangan va mustaxkam tashqi iqtisodiy aloqalarga ega bo'lgan mamalakat. Ammo, shunga qaramasdan inqiroz uning iqtisodiyotiga qattiq ta'sir ko'rsatdi. Shunday bo'lsada, xatto tushush davrida ham mamlakatning olib brogan chora tadbirlari, inqirozga qarshi ishlab chiqilgan strategiyalar, iqtisodiy salohiyati uning jahon arenasida o'zining yetakchi o'rnini saqlab qolish imkoniyatini beradi.

3.2. O'zbekiston – Yaponiya tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlari

Yaponiya dunyodagi eng taraqqiy etgan davlatdan biri hisoblanadi. Iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyati jihatidan AQSHdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Shu bois ushbu davlat bilan yaqin hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi Konstitutsiyamiz talablariga to'liq mos keladi va mamlakatimizda zamonaviy sanoat industriyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston va kunchiqar yurt xalqlarining do'stlik rishtalari, savdo va madaniy aloqalarining tarixi Buyuk Ipak yo'li davrining boshlanishiga borib taqaladi. Ushbu mamlakatning eng sharqiy nuqtasi yapon imperatorlarining ko'hna poytaxti Nara shahri bo'lib, 2010 yilning oktyabr oyida ushbu shaharning 1300 yilligi keng nishonlandi. Kushon davlatining eng e'tiborli dinlaridan biri bo'lgan buddaviylik eramizning I-VI asrdarida O'zbekiston hududida tarqalib, keyinchalik O'rta Osiyo xalqlarining qadriyatlari va an'analari bilan boyigan holda, Xitoy va Koreya orqali Yaponiya orollarigacha borib yetgani ikki xalq o'rtasidagi umumiy tarixiy ildizlarning mavjudligiga dalildir. Yaponiyaning mashhur musavviri, Toshkent shahrining faxriy fuqarosi Ikuo Xiroyamaning "agar Yaponiya buddaviylik madaniyatining sharqiy tomoni bo'lsa, u holda ko'hna O'zbekiston zamini uning g'arbiy tomonidir", degan so'zlari muhim ahamiyatga egadir. Xalqlarimiz o'rtasidagi uzoq o'tmishga borib taqaluvchi yaqin aloqalar O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi samarali hamkorlikning muhim omili sifatida bugungi kunda ham davom etib kelmoqda.

Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 28 dekabrda tan oldi. 1992 yil 26 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Mustaqillik e'lon qilingandan so'ng O'zbekiston-Yaponiya munosabatlari sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarildi. 1994 yilning may oyida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Yaponiyaga uyushtirgan dastlabki rasmiy tashrifi o'zaro ishonch va ikki mamlakat xalqlarining ma'naviy qadriyatlariga nisbatan hurmatga asoslangan do'stona aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2002 yil iyul oyida Yaponiyaga uyushtirgan ikkinchi tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida do'stlik, Strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida qo'shma bayonot imzolandi. Hujjatda tomonlarning do'stona munosabatlar va strategik sheriklikni tenglik, o'zaro hamjihatlik tamoyillariga muvofiq va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlari asosida rivojlantirishga tayyorligi o'z ifodasini topgan. Savdo-sotiq, sarmoyalar, ta'lim va boshqa sohalardagi aloqalarni kengaytirish ustvor vazifa sifatida belgilagan.

yil 8-10 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Yaponiyaga rasmiy tashrifi paytida Qo'shma bayonot va 3 ta memorandum: iqtisodiy hamkorlik to'g'risida; Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik to'g'risida va O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiya vazirligi va Yaponiyaning Iqtisod, Savdo va Sanoat Vazirligi (ISSV) o'rtasida tashqi savdo va investitsiyalarni rivojlantirish to'g'risida, shuningdek ikki mamlakatning xo'jalik sub'yektlari o'rtasida 18 ta shartnoma va memorandumlar imzolandi.

Iqtisodiy hamkorlikka doir 1994 yilda tuzilgan O'zbekiston-Yaponiya va Yaponiya-O'zbekiston qo'mitalari iqtisodiy munosabatlarning rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Ushbu ikki qo'mita tomonidan doimiy ravishda o'tkazib kelinayotgan qo'shma tadbirlar doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlikka doir keng qamrovli masalalar muhokama etiladi hamda O'zbekiston bilan Yaponiyaning ushbu yo'nalishlardagi aloqalarini chuqurlashtirishga oid aniq takliflar o'rtaga tashlanadi. 1999-2001 yillar davomida Toshkentda Yaponiyaning xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi (LSA) va Yaponiya tashqi savdo tashkilotining (JETRO) mintaqalararo vakolatxonalari hamda beg'araz texnik yordam ko'rsatish, ikkala tomon ishbilarmon va ijtimoiy doiralar vakillari o'rtasida aloqalar o'rnatish va gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantirish borasidagi loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi O'zbekiston-Yaponiya markazi ochildi.

O'zbekiston va Yaponiya turli xalqaro ahamiyatga molik vazifalarni hal etishda yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda va dunyo siyosatining ko'plab masalalarida

o'xshash nuqtai-nazarga ega. O'zbekiston Yaponiyaning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolidan qabul qilinishini qo'llab-quvvatlaydi. Yaponiya o'z navbatida Prezident Islom Karimovning O'rta Osiyoda yadro qurolidan xoli hududni tashkil etishga oid taklifini ma'qullagan.

O'zbekistonda Yaponiya sarmoyasi ishtirokida ko'plab yirik loyihalar hayotga tadbqiq qilinmoqda. "Mitsui", "Mitsubishi", "Itochu", "Marubeni" va boshqa shu kabi yirik yapon korporatsiyalarining vakolatxonalari ochildi. Iqtisodiyot yo'nalishidagi so'nggi muvafaqqiyatli hamkorlikning yorqin misollaridan biri sifatida Samarqand avtomobil zavodida "Isuzu" rusumli avtobus va yuk mashinalarining ishlab chiqarilayotganligini ko'rish mumkin.

Yaponiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda bir qator infratuzilma loyihalari amalga oshirildi va foydalanishga topshirildi, xususan, bu boradagi ishlar qatorida yaqinda qurib bitkazilgan "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" yangi temir yo'l yo'nalishini sanab o'tish o'rinlidir.


Ikki davlat o'rtasida sarmoyalar kiritish bo'yicha shartnomaviy-huquqiy asosni mustahkamlash ishlari davom etmoqda. 2009 yil sentyabr oyida "Sarmoyalarni liberalizatsiya va o'zaro himoya qilish hamda rag'batlantirish to'g'risidagi" hukumatlararo kelishuv kuchga kirdi. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida 2010 yil may oyida Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilishni moliyalashtirishga mo'ljallangan 300 million AQSh dollari miqdoridagi mablag' ajratish borasidagi bitimning imzolanishi generatsiyaning samaradorligini 30 foizdan 50 foizgacha oshirish hamda uglerodlar emissiyasini qisqartirish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muvafaqqiyatlarga erishgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi bu yutuqlarga iqtisodiyotni erkinlashtirish tufayli erishilganini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi ham jamiyat hayotining barcha sohalari, shu jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov bu tadbirlarning zarurligini qayta-qayta ta'kidlaydi: "Men oddiy bir haqiqatni barcha tushunib olishini istayman: erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish –

bu bizning olg'a intilishimizning kafolati va asosi, u nafaqat iqtisodi, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir".³⁵

3.2.1.Diagramma.

Ayrim rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'sish sur'atlari (oldingi yilga nisbatan foizda)*2012-yil uchun prognoz ma'lumotlari³⁶



Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan oshirilayotgan choralar dunyoda iqtisodiyotning globallashuvi va yagona jahon iqtisodini yaratish jarayonlari kechayotganini hisobga olib amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda muvafaqqiyatlarga erishgan ko'pgina mamlakatlarning tajribasi bu yutuqlarga iqtisodiyotni erkinlashtirish tufayli erishilganini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston o'zining tashqi iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirish va jahon iqtisodiyotining tarkibiy qismiga aylanishi zarur. Bu haqida mamlakat Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: "...tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning butun tizimini tubdan qayta qurib chiqish lozim. Men bu sohani boshqarish haddan tashqari rasmiylashib, ma'muriylashib ketgan deb hisoblayman. Unda iqtisodiy yo'l bilan, tariflar bilan boshqarishdan ko'ra ma'muriy cheklashlar orqali boshqarish usullari ustunlik qilmoqda. Biz tashqi iqtisodiy faoliyatning jahonda qabul qilingan ma'rifiy shakllariga tezroq o'tishimiz, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtirish kengashining 2000 yil 1 fevraldagi yeg'ilishida qilgan ma'ruzasi.

³⁶ I.A.Karimovning "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasi T. 2012, 14-bet.

erishmog'imiz darkor. Shu bilan bir vaqtda, biz iqtisodiyotimizga horijiy sarmoyani yanada kengroq jalb etish uchun, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarida, jahon bozorida raqobat qila oladigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda horijiy investorlar yanada faol ishtirok etishi uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni takomillashtirishimiz lozim³⁷.

Ko'p mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda kuchli proteksionizm va import o'rnini bosadigan maxsulotlar ishlab chiqarish bosqichidan o'tadilar, keyin esa asta-sekin eksportga yo'nalish tomonga siljiydilar. Ko'pincha import o'rnini bosadigan maxsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy mustaqillikka erishishning usuli bo'lib hizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlariga erishishi istar ekan eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatga o'tish muqarrardir. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan strategiyani shakllantirish uchun obdon tayyorgarlik ko'rish kerakligini ta'kidlash lozim. Bozor tamoyillari bo'sh rivojlangan iqtisodiyotlarda proteksionizmni bartaraf qilish resurslarning eksportga yo'naltirilishiga emas, ulardan to'la foydalanmaslikka olib keladi.³⁸

Yaponiya o'z bozorlarini himoya qilish uchun juda baland tariflar va qat'iy kvotalar o'rnatmadi. Ammo ko'plab "norasmiy" choralar qo'llandi. Mamlakatda davlat chet elliklar uchun murakkab bo'lgan savdo tizimini ko'plab cheklovchi qoidalar, andozalar, sifat tavsiyalari va hokazolar horijiy raqobatchilarning mamlakat ichkarisidagi bozorlarga kira olmasliklarini ta'minlash uchun "g'amxo'rlik qildi". Mamlakatda ko'pchilik kompaniyalar davlatdan yoki davlat yordamida imtiyozli kredit oldilar, kreditlar berishda "norasmiy" tarzda firmalar chet el tovarlarini imkon boricha sotib olmasliklari ko'zda tutildi. Yaponiya importni qiyinlashtirish uchun banklar bilan turli kelishuvlar, ruxsatnomalar va shunga o'xshash boshqa "norasmiy" cheklovlardan foydalandi. Aholi o'rtasida

³⁷ "I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston, 1999. 35-36-betlar."

³⁸ Agosin M.R. Trade policy reform and economic performance: empirical experience // Trade and Growth 1999

ham, jumladan ommaviy axborot vositalari yordamida chet elda ishlab mahsulotlarni sotib olmaslik to'g'risida keng targ'ibot ishlari olib borildi.

Shunday qilib, hozirgi zamon nazariyalari va jahon tajribasi davlatning iqtisodiy rivojlanish va eksportga yo'naltirilganlikni ta'minlashda ko'p funktsiyali va muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.


O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishda hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasi va eksportga yo'naltirilgan taraqqiyotni tartibga solishda jahon tashribasidan xususan Yaponiyaning eksportni hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportchilar uchun imtiyozlar berish, qulay shart-sharoitlar yaratish borasida chora tadbirlari va davlat dasturlaridan imkon va sharoitlardan kelib chiqqan holda foydalanish yanada yuqori samara berishi mumkin. Bundan tashqari O'zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakat bo'lib uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Yaponiya qo'llagani kabi tayyor mahsulot eksporti orqali ham Jahon bozorida O'zbekiston reytingini yanada yuqori darajalarga ko'tarilishini ta'minlash mumkin. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston-Yaponiya tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirishga zamin bo'la oladi. Chunki Yaponiya hozirda hom-ashyo import qilishdan tayyor maxsulot import qilishga o'tgan. Bu borada O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov: "Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xomashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutulib, tayyor raqobatdosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak"³⁹, deb ta'kidlagan edi.

Hozirda O'zbekiston jahon bozorida o'zining o'rniga ega bo'lib uning eksport salohiyata yil sayin o'sib bormoqda, buni quyidagi rasmda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

³⁹ I.A.Karimov. "Vatnimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlantirishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz". T. O'zbekiston. 2009

3.2.2.Diagramma.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdosi ko'rsatkichlari (million AQSH doll.)⁴⁰



O'zbekiston-Yaponiya savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikning kengayishi bo'yicha ijobiy an'analar kuzatilmoqda. 2005-yilda mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash 85,3 mln. doll., shu jumladan, eksport-31,7 mln. doll., import- 53,6 mln.doll.ni tashkil etdi. Eksport tarkibida, asosan, gazlama, paxta ipi shoyi va xizmatlar, import tarkibi esa zamonaviy texnologik uskunalardan iborat bo'ldi. Hozirda O'zbekiston Yaponiyaga oltin hamda paxta maxsulotlarini eksport qiladi, uning qiymati 2008-yilda 32.4 milliard yenni tashkil qilgan, Yaponiyadan esa asosan avtomobil va kauchuk mahsulotlarini import qiladi, ularning qiymati 2008-yilda 7,9 milliard yenni tashkil qilgan⁴¹. Bundan tashqari Yaponiya O'zbekistonga 2008-yilda 1,4 milliard yen investitsiya kiritgan, ma'daniyat sohasiga diplomatik

⁴⁰ I.A.Karimovning "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasi T. 2012

⁴¹ <http://www.mofa.go.jp/region/europe/uzbekistan/index.html>

aloqalar boshlangandan buyon 412,7million yen, ma'daniy yodgorliklarga 141 milliard yen va boshqa turli sohalarga 42,7 milliard yen ajratgan. Hammaga ma'lumki Yaponiya rivojlanayotgan mamlakatlarga katta miqdorda kredit va grantlar ajratadi, O'zbekiston taraqqiyoti uchun 97,552 milliard yen kredit va 18,879 milliard yen grant ajratgan. 2009 yilda O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 139 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bugungi kunda O'zbekistonga Yaponiya tomonidan ajratilgan moliyaviy mablag'lar hajmi 2,3 milliard AQSh dollaridan iboratdir. bu esa o'z navbatida O'zbekiston-Yaponiya aloqalari tobora chuqurlashib borayotganing isbotidir. Ammo shunga qaramasdan O'zbekiston-Yaponiya munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, rivojlantirish va bu aloqalardan yuqori foyda olish va samaraga erishishning imkoni mavjud.

Yaponiya va O'zbekistonning mintaqaviy va global muammolarni hal etish, globalshuv sharoitida Markaziy Osiyoning taraqqiyot yo'li borasidagi yondashuvlari mushtarakdir.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti xorijiy sarmoyadorlar uchun keng imkoniyatlar yaratgan holda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bundan tashqari, global inqiroz davrida puxta ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlar, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi hamda bank sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, O'rta Osiyoda iqtisodiy mo'jizaning yaratilishiga turtki bo'ladi.

“O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish suratlari o'rtacha 8,5 foizni tashkil etdi va bu Markaziy Osiyodagi o'rtacha o'sish ko'rsatkichidan yuqoridir. Qator yillar davomida kuzatilgan byudjet profitsiti, rasmiy zaxiralar darajasining yuqoriligi, davlat qarzining kamligi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning bevosita oqibatlaridan himoya qildi... Missiya 2011 yilda yalpi ichki mahsulot 8,3 foiz ko'payishini kutmoqda va o'rta muddatli istiqbolda iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolishini bashorat qilmoqda”.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi (3.2.3-rasm). Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi. Bu haqda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov: "2011 Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotganiga qaramasdan, O'zbekistonimizning yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'atlari oxirgi besh yil davomida dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida o'rtacha 8,5 foizni tashkil etgani va bu yil ham undan kam bo'lmasligi kutilayotgani iqtisodiyotimizning izchil va barqaror rivojlanib, taraqqiy topayotganining yaqqol dalilidir"⁴².

3.2.3-Jadval.

O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda.⁴³

2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
103,8	104,2	104	104,2	107,7	107	107,3	109,5	109	108,1	108,5	108,3

Yaponiyaning texnologik jihatdan yuksak taraqqiy etgani va uning ulkan investitsiya salohiyatini e'tiborga olgan holda yangi ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilishi – ikki tomonlama munosabatlarining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi. Qolaversa, yaqin yillarichida ikki tomonlama savdo hajmining oshirilishiga barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Yaponiyaning O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqalari muayyan strategik maqsadlarga qaratilgan bo'lib, boy tabiiy resurslarni yuqori rivojlangan sanoat bilan birlashtirgan holda hamkorlik qilish ikkala tomon uchun ham manfaatlidir.

⁴² Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi

⁴³ I.A.Karimovning "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasi T. 2012, 14-bet.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Yaponiyaning II Jahon Urushidan keyin rivojlanish yo'lini kuzatar ekanmiz Yaponiya hukumatining bu borada olib borgan islohotlari o'z samarasini yaqqol ko'rsatdi. Albatta, mavjud sharoitda hukumatning qa'tiy choralari tufayligina mamlakat dunyoning yetakchi davlatlar qatoriga kirib oldi. Hukumatning olib borgan siyosati, ayniqsa tashqi iqtisodiy faoliyati olib borgan ishlari tahsinga loyiqdir. Yaponiya milliy iqtisodiyotni eksportga yo'naltirdi. Buning uchun tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bo'yicha alohida vazirlik-Yaponiya Tashqi Savdo va Investitsiya vazirligi tuzildi(MITI). Ko'plab xorijiy iqtisodchilarning fikricha aynan mazkur vazirlik Yaponiya iqtisodiyotining "katalizatori" vazifasini bajarib berdi. Yaponiya iqtisodiyoti eksportga yo'naltirilganligi tufayli mamlakat asosiy e'tiborini eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirdi. O'z-o'zidan iqtisodiyot eksportga yo'naltirilgan ekan Yaponiyaning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirokini talab qilardi. Bu yerda albatta AQShning rolini alohida ajratib o'tish lozim. Sababi uning iqtisodiyoti AQSh iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liq edi. Tashqi iqtisodiy masalalarda AQSh bilan hamkorlikning kuchliligi sababli Yaponiya uchun bir qancha imtiyozlar yaratib berdi. Aynan xalqaro maydonda tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha faol ishtiroki tufayli mamlakat iqtisodiyoti kuchayib bordi. Yapon mo'jizasining ro'y berishida eng muhim omillardan biri ham tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha masalalardir. Boshqa tomondan olib qarasak Yaponiyaning tashqi iqtisodiy faoliyat masalalariga e'tiborining kuchliligi bu uning boshqa xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga qaysidir ma'noda bog'lanib qolganligi degani edi. Masalan 1973-yilda ro'y bergan energetika inqirozida bu holat yaqqol ko'zga tashlandi. Shu tufayli Yaponiya iqtisodiyotida bir qancha tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bundan ko'rishimiz mumkinki mamlakatning xalqaro maydondagi o'zgarishlar uning tashqi iqtisodiy faoliyat masalalariga ham o'zgartirishlar kiritib borgan.

Yaponiya hududi tabiiy resurslarga kambag'al hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar bilan ishtirok etishi uchun

unga xom-ashyo kerak edi albatta. Shuning uchun tabiiy resurlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish chet-mamlakatlar hisobiga amalga oshirilishi kerak edi. Demak bunda tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari zaruriyat ekanligini kuzatamiz.

1990-yillarga kelib jahonda globallashuvning kuchayishi, yangi mamlakatlar va iqtisodiy hududlarning paydo bo'lishi Yaponiyaning tashqi iqtisodiy masalalarida yangi yo'nalishlarini ochib berdi. Oldinroq yapon mahsulotlarining asosiy bozorlari AQSh va Yevropada joylashgan bo'lsa keyinchalik ularning bir qismi Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga ko'chdi.

Jahondagi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning "bosib o'tgan yo'llari" va bosqichlarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida tadbiriq qilganlar. Jumladan, Tailand, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Janubiy Koreya, Tayvan, Filippin kabi mamlakatlar tomonidan olib borilgan iqtisodiy islohotlar va dasturlar aynan "Yaponiya tajribasi"ning ba'zi jihatlaridan unumli foydalanish mahsulidir. Yaponiya esa xaqli ravishda XXasrning ikkinchi yarmida jahon xo'jaligida eng yetakchi mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egalladi.

Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishida eng muhim omillardan biri bu davlatning iqtisodiyotni tartibga solish usullaridan ustalik bilan foydalanganligidir. Bir tomondan iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan tarmoqlar rivojlanishi, ikkinchi tomondan esa xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ldi. Davlat iqtisodiy siyosatining muhim elementi iqtisodiyot rivojlanishini rejalashtirishdan iborat.

Yaponiyaning O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqalari muayyan strategik maqsadlarga qaratilgan bo'lib, boy tabiiy resurslarni yuqori rivojlangan sanoat bilan birlashtirgan holda hamkorlik qilish ikkala tomon uchun ham manfaatlidir. Savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ham ijobiy an'analar kuzatilmoqda. 2009 yilda O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi savdo aylanmasi 139 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bugungi kunda O'zbekistonga Yaponiya tomonidan ajratilgan moliyaviy mablag'lar hajmi 2,3 milliard AQSh dollaridan iboratdir.

Iqtisodiy hamkorlikka doir 1994 yilda tuzilgan O'zbekiston-Yaponiya va Yaponiya-O'zbekiston qo'mitalari iqtisodiy munosabatlarning rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Ushbu ikki qo'mita tomonidan doimiy ravishda o'tkazib kelinayotgan qo'shma tadbirlar doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlikka doir keng qamrovli masalalar muhokama etiladi hamda O'zbekiston bilan Yaponiyaning ushbu yo'nalishlardagi aloqalarini chuqurlashtirishga oid aniq takliflar o'rta tashlanadi. O'zbekiston-Yaponiya va Yaponiya-O'zbekiston qo'mitalarining navbatdagi o'ninchi yig'ilishi joriy yilning 8 fevral kuni Tokio shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

O'zbekistonda Yaponiya sarmoyasi ishtirokida ko'plab yirik loyihalar hayotga tadbiq qilinmoqda. "Mitsui", "Mitsubisi", "Itochu", "Marubeni" va boshqa shu kabi yirik yapon korporatsiyalarining vakolatxonalari ochildi. Iqtisodiyot yo'nalishidagi so'nggi muvaffaqiyatli hamkorlikning yorqin misollaridan biri sifatida Samarqand avtomobil zavodida "Isuzu" rusumli avtobus va yuk mashinalarining ishlab chiqarilayotganligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2008.
- 1.2. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida (yangi tahriri)"gi qonuni
- 1.3. "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonuni
- 1.4. "Boj ta'rifi to'g'risida"gi qonuni 1997.
- 1.5. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonuni
- 1.6. "Investitsiya to'g'risida"gi qonuni
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risidagi Qarori // Halq so'zi gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

- 2.1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi". – №21(4936), 30 yanvar 2010.
- 2.2. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi // Xalq so'zi. – №16(5183), 22 yanvar 2011.
- 2.3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 54 b.
- 2.4. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
- 2.5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

- 2.6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi. – №19 (4934), 28 yanvar 2010.
- 2.7. “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotini erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF 3618– son Farmoni.
- 2.8. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O‘zbekiston, 2005.
- 2.9. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz. T.9 T.: «O‘zbekiston», 2001y.
- 2.10. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga harakat qiladi.” Prezident I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.
- 2.11. Karimov I. A. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik G‘G’ Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. 6-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
- 2.12. I.A.Karimov O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. “O‘zbekiston 2011”

3. Monografiya va adabiyotlar

- 3.1.O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asosalari I.A.Hamedov, A.M.Alimov.
- 3.2. Международные экономические отношения /Под ред. Хасбулатова Р.И. М.: Новости, 1991.Т.1.
- 3.2.Пебро М. Международные экономические, валютно-финансовые отношения. - М.: Прогресс-Универс, 1994.
- 3.3. Нухович Э.С., Симитиенко Б.М., Эскидаров М.А. Мировая экономика на рубеже XX-XXI веков. -М.: Финансов. Академия при правительстве РФ, 1995.

3.4. Основы внешнеэкономических знаний / Под ред. Фаминского И.П. - М.: Международные отношения, 1994.

3.5. Международные экономические отношения В.Е.Рыбалкин

3.6. Сато Кадзуо. Импорт японских ресурсов. Анналы Американской академии политических и социальных наук. – Токио, 1991

4.Xorijiy adabiyotlar

4.1. 中世日本の国際関係：東アジア通交圏と偽使問題 / 橋本雄著 2005.

4.2. 戦後日本の国際関係 Hiroo Fujita 2004.

4.3. 戦間期日本の経済政策史的研究 / 東京大学出版会 三和良一 2003.

4.4. 東京裁判の国際関係：国際政治における権力と規範 / 日暮吉延著.
Higurashi Yoshinobu Tōkyō : Bokutakusha, 2002. 東京：木鐸社, 2002.

4.5. アジア.太平洋の国際関係と日本 / 渡辺昭夫著 Watanabe Akio Tōkyō :
Tōkyō Daigaku Shuppankai, 1992. 東京：東京大学出版会, 1992

4.6. 1920 年代の日本と国際関係：混沌を越えて「新しい秩序」へ杉田米行
編. 杉田米行, Yoneyuki Sugita 春風社, Yokohama-shi, Shunpūsha, 2011.

4.7. 世界経済のパラダイム変化と日本の経済政策 /Sekai keizai no paradaimu
henka to nihon no keizai seisaku. 明里帷大, Idai Akari 税務経理協会, Tōkyō :
Zeimu Keiri Kyōkai, 2002.

4.8. 経済政策の課題：経済改革からデフレ出口戦略まで /Keizai seisaku no
kadai : keizai kaikaku kara defure deguchi senryaku made, Toshiki Tomita;
Nomura Sōgō Kenkyūjo. 野村総合研究所, Tōkyō :Nomura Sōgō Kenkyūjo, 2004.

4.9. 新生日本の総合経済政策：IT 革命による「新・日本型統合システム」
の構想 Hitoshi Sakurai 中央経済社, Tōkyō : Chūō Keizaisha, Heisei 14 [2002]

- 4.10. Kruger A.O. The effects of trade strategies on growth // Finance and Development. 2003.
- 4.11. Khan M.S. and Villanueva D. Macroeconomic Policies and Long term Growth: A Conceptual and Empirical Review // IMF Working Paper. 2005.
- 4.12. Helpman E. and Krugman P. Market Structure and International Trade – Cambridge, Mass: MIT press 1995.
- 4.13. 'Meiji Nihon no boeki kankyo : *Kahei Seido Chosakai Hokoku* o yomu [The trade environment of Meiji Japan: a closer examination of the Report of the Committee on Currency Systems]', *Mita shogaku kenkyu* [Mita business review], vol.48, no.5 (December 2005)
- 4.14. 'Kin-kaikin ronso: Inouye Junnosuke to sekai keizai [The controversy over the suspension of the Japanese gold embargo from 1920s to the early 1930s: Junnosuke Inouye and the international economy]', in S. Sugiyama (ed), "*Teikoku*" *no keizaigaku* [*The economics of "the Japanese empire"*] (editor), Vol.2 of Iwanami koza "*Teikoku*" *Nihon no gakuchi* [Iwanami readings on *The discourse of "the Japanese empire"*], Tokyo: Iwanami Shoten, 2006
- 4.15. 'From firewood to coal: deforestation and the development of the silk reeling industry in modern Japan', in Makoto Yano ed., *The Japanese economy: a market quality perspective*, Keio University Press, 2008.

5.Statistik materiallar

- 5.1. JETRO, Japan External Trade Organization Reports and Statistics <http://www.jetro.go.jp/en/reports/>
- 5.2. MOJ, Ministry of Justice (2010): Heisei 19 nenmatsu genzai ni okeru gaikokujin torokusha tokei ni tsuite. www.moj.go.jp/PRESS/080601-1.pdf.
- 5.3. Ministry of Finance/Statistics <http://www.mof.go.jp/english/statistics>
- 5.4. Ministry of Internal Affairs and Communications, Statistical Handbook of Japan 2009, accessed at www.stat.go.jp/english/data/handbook/index.htm, on April 30, 2010.

5.5. MOFA Ministry of Foreign Affairs / Economic Affairs / Regional Affairs

6. Internet resurslar

- 6.1. <http://www.press-service.uz/uz/news/archive/>
- 6.2. http://mfa.uz/uzb/hujjatlar/vaz_mahk/
- 6.3. <http://finless.ru>
- 6.4. <http://www.mof.go.jp>
- 6.5. www.mfe.uz
- 6.6. www.cer.uz
- 6.7. www.eurasianews.com
- 6.8. www.tradingeconomics.com
- 6.9. <http://www.jetro.go.jp/en/reports/market/>
- 6.10. <http://www.jetro.go.jp/en/reports/statistics/>
- 6.11. http://www.jetro.go.jp/en/reports/white_paper/
- 6.12. <http://fxbiznes.ru/search>
- 6.13. <http://www.japantoday.com/category/national/view/no-of-foreign-residents-in-japan-falls-for-2nd-straight-year-in-2010>
- 6.14. <http://www.stat.go.jp>